


Marifat

Xalq ziyolilari gazetasi

Maqtanishga yo‘ymang-u, biror marta salbiy baho berib, jazolashmagan. Aksincha, bilganlaricha metodik yordam berib, ruhlantirib ketishgan. Buning sababi, jamoamiz ahilligi, o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashi, o‘z ustida ishlashi bilan bog‘liq deb hisoblayman. Halol va talab qilingandek ish qilgan har qanday kasb egasi na tekshiruvchi, na boshqasidan qo‘rqadi.

Ta'til tugagunga qadar asablari-
mizni battar buzib oylik kutdik. Biz
ta'lim va tarbiyada havas qilayot-
gan davlatlar o'qituvchilari esa turli joylar-
ga borib dam olishdi. Hademay ish boshla-
nadi: o'z-o'zidan maroqli hordiq chiqargan
xodimning ishida unum bo'ladi; oilaviy
dam olgan ota-ona va farzandlar orasidagi
munosabatlar yanada go'zallashadi; sana-
toriyadan qaytgan ustozlar yangi kuch bilan
dars beradi. Biz-chi? Tarang asablar, avans-
ni kutish, bir dunyo jadvalbozliklar bilan
charchab chorakni boshlaymiz va yana o'-
sha davlatlarga havas qilishda davom etav-
eramiz.

Baxtiyor MENGLIYEV:



“HAR BIR INSON ILM QILISH HUQUQIGA EGA”

SINF RAHBARI

3-bet





?

Savol bering, javob beramiz

!

Magistraturani tugatdim, ikkinchi toifa maoshini berishadimi?

? – Maktabda o'zbek tili fani o'qituvchisi-man. 2023-yili Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TA'ning magistratura bosqichini tugatganman. Shunga ko'ra menga ikkinchi toifa malakali o'qituvchi sifatida maosh berilishi kerak. Bu Vazirlar Mahkamasining 572-qarori 10-bandida (17.09.2021) keltirilgan. Ammo maktab direktorining shu asosda chiqarayotgan buyrug'ini So'x tuman adliya bo'limi va So'x tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rad qilyapti. Buning sababi so'nggi yillarda amalda bo'lgan tartibga ko'ra men pedkadr.uzedu.uz yoki uzedu.pedkadr.uz saytiga diplomimni yuklashim va saytdan o'zimga magistr darajali ikkinchi toifali o'qituvchi degan sertifikat yuklab olishim kerak ekan.

Vaholanki, 2023-yil 26-maydagi 79-sonli Prezident Farmoniga ko'ra 2024-yilning yanvar oyidan malaka toifasi berishning yangi tartibi joriy qilinadi, shu munosabat bilan avvalgi tartib va taomil muzlatilgan, ular talab qilayotgan sayt ham test rejimiga solib qo'yilgan. Ammo VM-572-10-band haliyam o'z kuchida turibdi. Demak, menga ikkinchi toifa asosida maosh berilishi kerak.

Ammo Farg'ona viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi yanvardan boshlab, yangi tartib joriy qilingandan keyin, men sertifikat olib bersam, shundagina ikkinchi toifa bo'yicha maosh berishlarini, ungacha olgan maoshimga mutaxassisnikidan ortiqchasi undirib berilmasligini aytdi. Bu masala bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarovaga yo'llagan murojaatlarim vazirlikka yetib bormasdan, ijro uchun boshqarmaga qaytarib yuborilyapti.

Savolim shuki, men hozirgi amaldagi tartib bo'yicha ikkinchi toifa malakali o'qituvchi sifatida maosh olishga haqlimanmi? Haqli bo'lsam menga amaliy yordam berishingizni so'rayman.

Shohro'z MO'MINZODA,
So'x tumanidagi
29-maktab o'qituvchisi

! **Javob:** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilinishi belgilangan.

Malaka toifasi berishning yangi tartibi joriy qilinguniga qadar malaka toifasini olish bo'yicha sinovlarni o'tkazishga moratoriy joriy etilgan. Moratoriy davomida pedagog kadrlar navbatdagi malaka toifasini olish sinovlariga jalb etilmasligi hamda ularning malaka toifasini tasdiqlovchi sertifikatning amal qilish muddati navbatdagi sinovlarga jalb qilinguniga qadar avtomatik ravishda uzaytirilishi belgilangan.

2024-yil 15-yanvardan boshlab vazirlikning rasmiy veb-saytidagi pedkadr.uzedu.uz platformasi orqali to'g'ridan-to'g'ri hamda malaka toifa olish uchun malaka (test) sinovlarida qatnashishga arizalar qabul qilish yo'lga qo'yilishini ma'lum qilamiz.

3- va 8-bandlarga aniq asos beriladimi?

? – Vazirlar Mahkamasining 823-qarori 3- va 8-bandlari biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'ylantirayapti. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga 3-banddagi turli tanlov va tadbirlarga 30 ball beriladi deyilgan. Chunki boshlang'ich sinflar uchun olimpiada yo'q.

Savolim shuku, biz bu tadbirlarni maktab miqyosida o'tkazamizmi? Nechta tadbir o'tkazishimiz kerak? Shu 30 ballni to'plashimiz uchun bizga aniq asos kerak.

8-band asosida esa sinfdan tashqari ishlari uchun 15 ball beriladi deyilgan. Bu 15 ballni olish uchun ham qanday ishlar qilishimiz kerak bo'ladi?

Bizga nechta tadbir, nechta tanlov o'tkazishimiz kerakligi aniq belgilab berilsin.

Sayyora YORQULOVA,
Olmaliq shahridagi
14-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

! **Javob:** – Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrda 823-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnatilgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jam'ar-masini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida" Nizomda pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarining faoliyatini baholash mezonlari aniq ko'rsatib o'tilgan.

Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktab miqyosidagi tanlov va boshqa tadbirlardagi ishtiroki natijalari asosida ularga belgilangan, ya'ni maktab miqyosidagi tanlov va boshqa tadbirlarda qatnashgan o'quvchilari to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballning ulushi:

55 – 70 foizni tashkil etganda – 10 ball;

71– 85 foizni tashkil etganda – 20 ball;

86 – 100 foizni tashkil etganda – 30 ball beriladi.

Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ijodkorlik va san'atga qaratilgan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish ishlari kiradi. Bunda:

– kreativlikni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlarni (fotoko'rgazmalar, hunarmandchilik, musiqa va teatr sahnalari kabi) tashkil etgan bo'lsa – 5 ball;

– o'quvchilarni fikrlashga o'rgatuvchi va dunyoqarashini kengaytiruvchi, yangi ko'nikmalar beruvchi



qo'shimcha mashg'ulotlar (debat va hikoya qilish klublari, maktab radiosi/gazetasi/vub-sayti, axborot tahliliy mashg'ulotlari) olib borsa – 10 ball;

– o'quvchilarni izlanishga undovchi ishlarni (iqtidorli va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish, nutq san'ati tadbirlari) olib borsa – 15 ball beriladi.

Ma'lumot uchun: pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarining bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilash umumta'lim muassasalarida tashkil etiladigan Ustamalar belgilash, moddiy rag'batlantirish va moddiy yordam berish bo'yicha ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur ishchi guruhlar o'quv-tarbiya jarayoniga shaxsiy hissa qo'shayotgan, o'z kasbiga sodiq va tashabbuskor, yuqori kasb darajasini namoyon etayotgan pedagog, psixolog va kutubxona xodimlarini mazkur baholash mezonlari asosida aniqlaydi hamda ularga bazaviy tarif stavkasiga har oylik ustama belgilaydi.

Ommalashtirish platformasi qachon ishga tushadi?

? – Uchinchi chorak ham boshlandi. Ustozlar o'zlarining oylik maoshini oshirish maqsadida yil oxirida 40 foizlik ustamada ball olish uchun dars ishlanmalari, metodik qo'llanmalar, videolarlar tayyorlab qo'yishgan. Lekin haligacha ommalashtirish platformasidan darak yo'q. Platforma qachon ichga tushadi?

Sayyora YORQULOVA,
Olmaliq shahridagi
14-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

! **Javob:** – Vazirlikning 2022-yil 25-avgustdagi tegishli buyrug'iga asosan ilg'or tajribaga ega bo'lgan va faoliyati davomida zamonaviy metodikalarni qo'llab kelayotgan o'qituvchilarni aniqlash va ularning ilg'or tajribalarini ommalashtirish maqsadida ularning faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibi – ommalashtirish.uz platformasi tashkil etilgan.

Ayni vaqtda o'qituvchilarning eng yaxshi metodik ishlanmalarini aniqlashning aniq va tezkor yo'nalishlarini amaliyotga joriy etish, bunda pedagoglarning samarali ish faoliyatini ham e'tiborga olish maqsadida ommalashtirish.uz platformasi yanada takomillashtirilayotganligi hamda mazkur jarayonlar yakuniga yetgach platforma ishi qayta yo'lga qo'yilishini ma'lum qilamiz.

Savollarga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mutaxassisleri javob berishdi.





O'qituvchi kundaligidan

SINF RAHBARI

SINF RAHBARI – ONA

Ona hammaning o'rnini bosishi mumkin, lekin uning o'rnini hech kim bosolmaydi. O'quvchini o'z bolasidek yaxshi ko'radigan, ta'tillarda sog'inib qoladigan, betob bo'lsa xabar oladigan, qiynalganda ko'mak beradigan haqiqiy ustoz-ona sinf rahbaridir. Sinf rahbari o'quvchilar tufayli maktabga ko'proq bog'lanadi. U maktabdagi ona. Lekin barcha ustozlar “ona” deyilishga arzirmikan? Ba'zi sinf rahbarlari tarbiyasi og'ir, sho'x, fanlarni yaxshi o'zlashtirmaydigan bolani boshqa sinfga o'tkazib, “boshog'riq”dan qutulgan bo'ladi. “Tozalangan sinf”ning ko'rsatkichlari yuqori, namunali. Qarsaklar ham aynan o'sha sinfga va sinf rahbariga chalinadi. Lekin narigi sinf-chi? Sinf rahbari-chi? Ularning aybi nima?

O'sha sinf rahbari o'zining sho'x, gapuqmas farzandini qo'shnisining odobli bolasiga almashtirmidimi? Albatta, yo'q. Chunki bola o'ziniki, o'quvchi esa birovning bolasi. Bu yerda sinf rahbari sinfga, bolaga, ta'bir joiz bo'lsa, kasbiga xiyonat qilmoqda. Agar u yaxshi pedagog bo'lsa, kasbini sevsa, bolalarni ayirmay, teng ko'rib ishlashi joiz. Yaxshini yaxshi qilish hammaning qo'lidan keladi, yomonni yaxshi qilish esa hammaning ham qo'lidan kelmaydi.

Ana shunday o'quvchilardan birini sinfimga qabul qilganim menga katta yutuq olib keldi. Esilasangiz, bundan bir necha yil ilgari Meksikada futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tgan edi. O'shanda terma jamoamiz ilk bor kuchli sakkizlikka kirgandi. Xursand bo'lganim, jamoada mening “gapuqmas, betartib” o'quvchim ham bor edi...

SINF RAHBARI – OTA

Ikkinchi smenada darsimni yakunlab, sinfdan chiqdim. Yo'lakda kimdir kostyumimning yengidan tortganini sezib, ortimga o'girildim. Qosh-ko'zlari qop-qora, sochi ikki o'rilgan, bantik taqqan qorachagina, istarasi issiq 5-sinf o'quvchisi turardi.

– Ustoz, – dedi u qo'rqa-pisa, – sizni dada desam maylimi?

U yig'lab yubordi. Nima qilishimni bilmay qoldim. Bu voqea favqulodda shunchalik tez ro'y berdiki, bir umr hayotimda muhrlanib qoldi. Begona bolaga mening ota bo'lishim... Uning hayotida qandaydir kemtiklik bor.

Qizaloqning qo'lidan ushlab, cho'kka-lab o'tirdim, ko'zyoshlarini artdim.

– Qizim, sen yig'lama. Hali hammasi yaxshi bo'ladi. Dadang... vafot etganmi? – dedim ko'ngliga og'ir botmaydigan ohangda.

– Yo'q.

– Unda nega?..

– Kichkinaligimda bizni tashlab ketgan. Dadasi borlarga havasim keladi. Onam, bobom, tog'alarim, xolam, dugonalarim, ustozlarim bor. Faqat dadam yo'q. Ustoz, sizdek dadam bo'lishini orzu qilaman.

– Mayli, ona qizim, istaganingcha aytaver. Sen mening qizimsan. Bilasan, ertaklar doimo yaxshilik bilan tugaydi.

Demak, sening ertaging hali tugagani yo'q. Kelajaging oydin bo'lsin. Yaxshi o'qi, odob-axloqli, ko'rsa ko'zlar quvondigan qiz bo'l. Men seni qo'llab-quvvatlashga tayyorman, – dedim-da, stolim ustidan Tohir Malikning “Mehmon tuyg'ular” va “Hikoyalar”ini sovg'a qildim. Qizaloq bir menga, bir qo'lidagi kitoblarga qaradi-da:

– Hali hech kim menga kitob sovg'a qilmagan edi. Rahmat, dadajon! – dedi-yu, bo'ynimdan quchoqlab oldi. Xuddi farzandimni bag'rimga bosgandek bo'ldim.

Demak, sinf rahbari har qanday holatda bolani tinglay olsa, uning dunyosi bilan yashasa, qalbiga yo'l topolsa, unga o'z otasi yoki onasidek bo'lib qoladi.

Qog'ozlarga “ko'milib” yashaymiz. Ish reja taxt, hisobotlar jimjimador, ko'zbo'yamachilik uchun rasmlarga tushyapmiz, tarbiyaviy soatlar o'tilyapti, ota-onalar majlisi o'tkazilyapti, davomat tekshirilyapti. Sirtidan qaraganda hammasi zo'r, faqat qog'ozda... To'g'ri-da, tekshiruvchi ham faqat qog'oz so'raydi-ku. Lekin unutmaylik, biz bola bilan, kelajak bilan ishlayapmiz. Agar tarbiyani maktab ota-onaga, ota-ona esa maktabga yuklasa, bola aro yo'lda – ko'chada qoladi. Ko'cha esa bolani o'zi xohlagancha “tarbiyalab” oladi.

SINF RAHBARI – DO'ST

Tarbiya uch davrga bo'linadi: 5 yoshgacha bolaga podshodek muomala qilinadi, 11-12 yoshgacha mehnatga o'rgatiladi, 12 yoshdan keyin unga faqat do'st bo'lish, yonida turish, maslahat berish, iloji bo'lsa birgalashib faoliyat olib borish kerak. Xo'sh, sinf rahbarlari bolaga do'st bo'la olishyaptimi? Ularning maktabdan, o'qishdan tashqari qiziqishlaridan xabardormi?

To'g'ri, 12 yoshda o'quvchining ko'p narsaga aqli yetmaydi. Aksariyat sinf rahbarlari rahbarlikning birinchi kunidanoq mashhur multfilmda aytilganidek, “qo'rqsa, hurmat qiladi” qabilida ish tutib, qattiqqo'llik qila boshlaydi. Uning nazdida bu sinfdan tartib-intizom saqlashning asosiy yo'li. Sinf rahbarining soyasidan qo'rqib salom beradigan, o'tir desa o'tiradigan, tur desa turadigan o'quvchilarning ko'pini ko'rganmiz. Ammo ular sinf rahbarining yonidagina, undan qo'rqib hurmat qilishadi. Ortidan esa hurmatsizlik qiladilar. O'quvchi qalbida sinf rahbariga nisbatan qahr, nafrat nish ura boshlaydi. Unutmaylikki, qahr bor joyda nafrat, mehr bor joyda muhabbat uyg'onadi.

Sinf rahbarini oldida ham, ortidan ham, undan qo'rqib emas, yaxshi ko'rib hurmat qiladigan o'quvchilaringiz bo'lishi qanday baxt!

Aksi bo'lsa-chi? Balog'at yoshiga yetgan o'quvchining “sinf rahbarim ko'pchilik oldida meni mulzam qilmasmikan?” deya fikrini aytolmasligi noto'g'ri muhitdan darak beradi. Chunki bunday muhit bola ruhiyatiga salbiy ta'sir etadi. Natijada u qobiliyatsiz, beburd, o'zi tugul hech kimga ishonmaydigan, mustaqil qaror qabul qilolmaydigan kimsa aylanadi.

Ba'zi sinf rahbarlari nojoiz ish qilgan o'quvchiga qattiqroq chora ko'rish uchun uni maktab direktori, o'rinbosari yoki o'qituvchilar xonasiga olib kirib “jazolaydi”. Kechirasiz-u bu tarbiya emas, o'quvchidan qasd olish. O'tish davrida har qanday o'quvchidan istagan narsani kutish mumkin. O'quvchilar o'rtasida ko'proq kuzatiladigan suitsid hodisasi besabab ro'y bermaydi axir.

Eng yaxshi usul – o'zingiz bolaga “yoriling”. Uyingizda mehmon qiling, birga bozor aylaning, undan maslahat so'rang. Xullas, u sizni – sinf rahbarini qaytadan kashf etsin. Ana shundagina bir donishmandning gapi qanchalik to'g'ri ekanligiga amin bo'lasiz: haqiqiy do'st qo'llaringdan tutmaydi, aksincha qo'llaringni qo'yib yubormaydi.

SINF RAHBARI – DIPLOMAT

“Sinfimdagi eng yomon o'quvchimni boshqa sinfdagi 10 nafar eng yaxshi o'quvchiga alishmayman”.

Agar sinf rahbari bu iborani o'ziga shior qilib olsa, boringki, sinfxonasining ko'z tushadigan joyiga ilib qo'ysa, uni o'qigan bolaning ustoziga nisbatan mehri uyg'onadi. Faqat buni sinf rahbari amalda ham isbotlashi kerak.

Diplomat bo'lishimiz kerak. Ikki o'quvchi kelishmay qolsa, o'quvchi o'qituvchi bilan ziddiyatga borsa, o'quvchilar orasida muammo tug'lsa, ota-onalar o'qituvchidan, hattoki sinf rahbaridan shikoyat qilib kelsa, uning diplomatlik salohiyati asqotadi.

Ba'zan sinf ota-onalar yig'ilishida qatnashaman. Afsuski, ayrim sinf rahbarlarining deyarli o'z fikriga ega emasligi yoki o'z fikridan mutlaqo qaytib, ota-onalar fikri bilan ish yuritishidan ranjiysan kishi. Vaholanki, yig'ilishda (agar uni yig'ilish deb atab bo'lsa) 8, nari borsa 10 nafar ota-ona ishtirok etadi. Sinf rahbari nuqtayi nazarini qo'ya turing, uning o'rni qani? Ota-ona uyiga borib farzandiga yana o'sha “tanish chehralar”ni ko'rganligini, kelgusi yig'ilishda u ham ishtirok etish-etmasligini o'ylab ko'rishini, sinfdan sinf rahbarining boshqaruvchanligi yetishmasligini aytmaydimi?! 30 nafar o'quvchisi bo'lgan sinfdan 10 nafar ota-onaning yig'ilishga kelishi sharmandali holat. Ha, ba'zida yig'ilishlarda ota-onalar kelmasligidan noliymiz, lekin unutmaylik, tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Tushungandirsiz. Mana sizga sinf rahbarining diplomat emasligi, murosasizlik.

Agar u yig'ilishga kelmagan ota-onalarning uyiga, ishxonasiga borib, yuzma-yuz gaplashsa, ular ishlaydigan muassasa yoki tashkilot rahbari huzuriga kirib, qo'l ostidagi ishchi-xodimining farzandi tarbiyasiga mas'uliyatsizligi haqida bildirsa-chi?

Ana shundagina biz haqiqiy ota-onalar yig'ilishini ko'rishimiz mumkin.

SINF RAHBARI – MENEJER

6-sinfda dars kuzatib o'tiribman. Sinf rahbari o'z fanidan sinfga dars o'tmoqda. O'qituvchi tasodifan bir o'quvchi-

ning rasm chizib o'tirganini ko'rib qoldi. Jahl bilan bordi-yu chizgan rasmlarini so'ramay-netmay yirtib tashladi. O'quvchi o'zining emas, o'qituvchining qilgan ishidan pushaymon bo'lgandek bir holatga tushdi. Darsda boshqa ish bilan shug'ullanib o'tirgani uchun bola uyali-shi kerak edi aslida. Ammo keyinchalik vaziyatga oydinlik kiritgach, o'quvchiga nisbatan mehrim oshdi. Sinf rahbarining “o'ta chaqqonligidan”, tajribasizligidan uyaldim.

Gap shundaki, o'quvchi O'zbekiston gerbini chizayotgan ekan...

Agar dars matematika yoki fizika bo'lganda, gerbdagi Humo qushining taxminiy tezligini aytish, yashash joyimiz yoki viloyatimizdan poytaxtgacha masofani aniqlab, uning uchish vaqtini aniqlashni o'quvchilar hukmiga qo'yish mumkin edi. O'qituvchi bir o'q bilan bir emas, bir nechta quyonni urardi: avvaliga o'quvchining “ijodi”ni tengdoshlariga ko'rsatib, uni maqtab qo'yadi. Boshqa o'quvchilar Vatan haqida she'r, maqol aytadi. Qolganlar berilgan masalani yechadi. O'qituvchining tadbirkorligi, ish-bilarmonligi, menejerligi qaltis vaziyatni yumshatadi. Agar tarix darsi bo'lsa, Humo qushi haqidagi afsonani, biologiya yoki geografiya bo'lsa, o'simliklar olami, vatanimizning paxta va bug'doy yetishtirish, eksport qilish salohiyati haqida suhbatlashish mumkin edi. Chet tili darsi bo'lsa, o'sha tilda O'zbekistonga ta'rif berish, kimyo darsida esa paxtadan qanday mahsulot olish, uni qayta ishlash, bug'doydan un olish texnologiyasini qisqacha aytib berish kifoya. Bu o'qituvchidan juda chuqur bilimni talab qilmaydi, ammo uning tadbirkor qiyofasiga kirib, muammoli vaziyatdan ustalik bilan chiqib ketishi jamoada o'zaro ishonch va hurmat uyg'otadi.

Sinf rahbari xato qilishdan emas, uni tuzata olmaslikdan qo'rqishi kerak.

SINF RAHBARI – USTOZ

O'qituvchi xato qilsa, notog'ri tarbiya bersa, butun boshli jamiyat izdan chiqadi. Tajribali ustoz doskaga 1 raqamini yozib:

– Bu – inson. Keling, uning sifatlarini sanab chiqamiz, – deb har xil insoniy sifatlarini aytib, 1 ning yoniga 0 raqamini yoza boshladi: halollik, mehribonlik, mehnatsevarlik, saxiylik, bag'rikenglik, xushxulqlik va boshqalar.

Doskada 1 000 000 soni hosil bo'ldi.

– Endi esa har bir sifatni o'chirsak, son kichiklashib boradi, – dedi-yu birin-ketin 0 larni o'chira boshladi.

– Ammo, – dedi u so'zida davom etib, – insoniylikni unutgan bo'lsa-chi? Unda biz 1 ni o'chiramiz. Natijada faqat 0 lar qoladi. Nol, ya'ni bo'shliq, hech narsa, tubsizlik deganidir.

Demak, biz kim, qanday kasb egasi bo'lishimizdan qat'i nazar, Olloh yaratgan oliy mavjudot ekanligimizni unutmashimiz kerak. Agar har bir sinf rahbari “o'quvchilarim meni ustoz sifatida emas, avvalo inson sifatida yaxshi ko'rishlarini istayman”, deb qalbida muhabbat bilan maktab ostonasiga qadam qo'ysa, eng sevimli kishiga aylanadi. Zero, uning maqsadi ham, maslagi ham bitta – tarbiya va ta'lim.

Erkinjon YARASHEV,
Zarafshon shahridagi
13-IDUMning fizika fani
o'qituvchisi,

“Ta'lim fidokori” ko'krak nishoni sohibi

O'QUVCHILARIMDAN OLGAN SABOQLARIM

Kollejdagi birinchi darsim...

O'qituvchilik faoliyatimga anchagina bo'lgan esada, negadir yuragim gupullab ura boshladi. Eshikdan kirishim bilan o'quvchilar avvaliga yangi o'qituvchi deya boshdan-oyoq razm solishdi. So'ng har kim o'z bilganidan qolmadi: kimdir birov bilan baralla ovozda kecha ko'rgan kinosidan bahslashar, yana kimdir pardasiz gaplar bilan qizlarning jig'iga tegardi, boshqasi esa partani chertib, bemalol kuy chala boshladi.

Bir muddat, atigi bir muddat fikrlarimni yig'ib olishim kerak edi. So'ng esa men ham yoshlar yoqtiradigan bir qo'shiqni kuylay boshladim. Keyin she'rga ulab yubordim. Orqasidan rivoyat ayta boshladim.

Qo'shiq davomida avvaliga o'quvchilar hayron bo'lishdi. Keyin bir-birlariga qarab piq-piq kulishdi ham. Ammo qo'shiqning surovini to'g'rilab olganimdan so'ng jim tinglay boshlashdi. Rivoyat ham tugadi. Harakatsiz holda bir-birimizga tikilib turdik-da, keyin: "Men ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nilufar Ahmedova bo'laman. Sizlar-chi?" dedim.

Ishonasizmi, oramizda juda nozik bir rishta paydo bo'la boshladi. Birma-bir tanishib chiqdik. Atayin fan bo'yicha emas, balki ularning qiziqishlari, hayotlari haqida rasmiylikdan yiroq, balki do'stona suhbat qurdik. Suhbatimiz mavzuga ulanib ketdi.

Dars tugadi. Negadir biror o'quvchi o'rmdan jilmas edi. Bir-birimizga samimiy tabassum bilan qarab turardik. Bu mening kollejdagi birinchi sabog'im bo'ldi.

O'quvchiga qanday murojaat etasiz?

5-sinfda o'qirdim. Matematika o'qituvchimiz meni Nilyufar deb chaqirar, men esa ismimni to'g'ri aytmagunicha Nilyufar emas, Nilufar deb tuzataverar edim... Chunki ota-onam yaxshi niyat bilan qo'ygan ismni juda ardoqlayman. Buni o'qituvchilik faoliyatim davomida har bir o'quvchi shaxsiyatiga nisbatan qo'l-laganman.

...Kollejda payvandchilik guruhida dars bormoqda. O'tilgan mavzuni rasmlar orqali ifodalash jarayoni. Guruhdagi Ramziddin (uni Ramka deyishar ekan) degan bolani guruhdoshlari negadir juda ko'p kalaka qilishardi. Ammo bir narsani sezdim. Bu bolaning tasviriy san'atga yaxshigina iqtidori bor. Topshiriqni tekshirish jarayonida aynan shu o'quvchining ishlarini alohida ta'kidlab, baralla ovozda: "Ota-onangizga rahmat, azizim Ramziddinbek!" dedim. Yonidagi o'quvchi uni turtib: "Ey Ramka, seni azizim dedilar, Ramziddinbek deyaptilar. Eshitdingmi?" dedi kesatib. To'g'risi, yuragim o'ksinib ketdi.

Bir hafta o'tib darsda yo'qlama qilayotsam, kimdir: "Ramziddin kela olmas ekan", dedi. Butun sinf orqa o'rindiqda o'tirgan gap egasi – sinfboshiga qaradi. Tushunarli. Hammasi joyida. O'quvchiga **MULK** bus-butunligicha qaytarilibdi.

Yozuv taxtasi – tarbiya oynasi

Biz bir haqiqatni juda yaxshi bilamiz. Hatto pand-nasihatning ham oshig'i ortiqchalik qiladi. Had-

dan ziyoda tanbeh eshitgan bola shunga ko'nikib, ta'sirlanmay qoladi.

Pedagogikada esa tarbiyaning turli yo'llari mavjud. Bunda bizga oddiygina yozuv taxtasi ko'maklasha oladi. Chunki o'quvchi tanbeh olayotganini sezmasligi kerak.

E'tibor bering: dars boryapti. Bir sho'x o'quvchi har kimning jig'iga tegish bilan ovora. Misol tariqasida: "Komronbek, farosat va aql-u donish hamrohingiz bo'lsin!" yoki "Nazarimda, Komronbek, siz do'stlaringizning qadriga juda yetar ekansiz" gaplaridagi undalma yoxud gapning egalarini topish bahonasida o'z-o'zidan o'quvchini yo'l-yo'lakay tarbiyalab, unga tanbeh berib borasiz. Shu ham gapmi, deydiganlarga esa bir sinab ko'rishni tavsiya qilamiz. Sababi: birinchidan, o'quvchining ismi og'zaki emas, balki yozma tarzda bayon etilib, barcha o'quvchilar tomonidan daftarlarga ko'chirilmoqda. Ikkinchidan, uning xatti-harakati qoralanmay, aksincha, maqtalmoqda.

Yillar o'tib, qancha-qancha shogirdlar tarbiyaladim. Ustozlarimdan o'rgangan neki ilmim bo'lsa, ularga yetkazishga harakat qildim. Va shu haqiqatni angladimki, o'rgatish barobarida juda ko'p narsani ularning o'zidan o'rgandim. O'rgangan sayin o'qituvchi, uning siymosi ko'z o'ngimda ravshanlasha bormoqda. Shu sababli har bir sabog'imda o'quvchilarimdan minnatdor bo'laman. Rahmat sizga, mening jajji ustozlarim!

Nilufar AHMEDOVA,
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tajriba

MUSIQA DARSLARIDA "4K" MODELINI QO'LLAY OLAMIZ(MI)?

Bugungi kunda maktab ta'limida "4K" modelini qo'llash joriy etildi. Ushbu o'quv yilida ilg'or tajribalar asosida yaratilgan boshlang'ich sinf darsliklari ham ta'lim oluvchilarda aynan ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Barcha fanlar barobarida musiqa fani ham shu ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Xo'sh, musiqa darslarida ushbu model qanday joriy etiladi? Musiqa fani o'qituvchilari ushbu vazifani qay tariqa bajarishadi?

Har bir o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lib, o'quvchilarini yangiliklardan o'z vaqtida boxabar qilmog'i lozim. Zamonaviy ta'limning maqsadi ham o'zida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish olgan avlodni tarbiyalashdir. Musiqa fani o'qituvchisi sifatida "4K" modeli bo'yicha tushunchalarimni va tajribamda qo'llaganlarimni o'z hamkasblarim bilan bo'lishmoqchiman.

"4K" – bu o'z nomi bilan 4 ta "C"(K), ya'ni "Critical thinking" – kritik (tanqidiy) fikrlash, "Creativity" – kreativlik, "Coordinating with others" – kooperatsiya yoki kollaboratsiya, "Communication" – kommunikatsiya demakdik. Ya'ni, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot kabi ko'nikmalar majmuyi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash – o'quvchilarni berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muammolarga yechim topishga o'rgatadi. Axborotni tanqidiy baholash, o'zini boshqara olish, o'z-o'zini tekshirish, fikr-mulohazalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash uchun misollar: musiqa ta'limida eng birinchi nazariya – tovush hisoblanadi. Tovushlar ikkiga bo'linadi: musiqiy va shovqinli tovushlar. Aniq balandlikka ega bo'lgan tovushlar – musiqiy, aniq balandlikka ega bo'lmagan tovushlar – shovqinli tovushlar hisoblanadi. Balandlik – bu sodda

qilib aytganda biz bilgan notalar. Musiqiy tovushlarga insonning vokal ovozi va cholg'u asboblari misol bo'la oladi. Shovqinli tovushlarga esa tevarak-atrofdagi ovozlar, tabiat hodisalari tovushi va boshqa ko'plab tovushlar misol bo'ladi. Savol: doira, nog'oraning tovushi qanday tovush? Musiqiy tovush desak, unda aniq balandlik bormi? Doira yoki nog'orada "do, re, mi, fa, sol, lya, si"ni ijro etib bo'ladimi?

Kompozitor va bastakor degan so'zlarni ko'p eshitganmiz. Ko'pchilik kompozitor yevropacha so'z, shu so'zning o'zbekcha tarjimai bastakor deb o'ylaydi. Lekin kompozitor va bastakorning vazifasi bir-biridan farq qiladi. Kompozitor chet el an'analari asosida ijod qiluvchi, bastakor milliy yo'nalishda ijod qiluvchi ijodkordir. Muhammadjon Mirzayev – bastakor, u ashula, qo'shiq, milliy cholg'u asboblari uchun kuy yozgan. Mutal Burhonov – kompozitor, u opera, romans, syuita, kantata yozgan. Savol: chet elning buyuk musiqachilari (kompozitorlari) Motsart, Betxovenlarning o'zbek adabiyotlarida, manbalarda bastakor deya ta'riflanishi to'g'rimi?

Kreativlik – o'quvchilarda qiziquvchanlikni oshirish, ko'proq bilishga intilish, mustaqil ishlash, tasavvur doirasini kengaytirish, g'oyalarni rivojlantirish, yangi yechimlarni taklif qila olish, ijodiy

fikrlash va yangilik kiritish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqa o'zi ijodkorlik. Chunki u ijod etiladi. Kreativlik ko'nikmasi aynan estetik fanlar orqali rivojlantiriladi. O'quvchilar tomonidan notalarning chizilishi, cholg'ularning tasvirlanishi, musiqiy harakatlarning bajarilishi, musiqiy ertaklarning sahnalashtirilishi ijodkorlikning yorqin namunasidir. Ijodkorlikni oshirish maqsadida bolalarga cholg'u asboblari(marakas, bubon, treshotka, uchburchak, qo'ng'iroqcha, shaqildoq va h.k.)ni kundalik mahsulotlardan qo'lda yasash va unda ijro etishni o'rgatish mumkin. Avtomobilni yaxshi ko'rmaydigan bola bo'lmasa kerak. Musiqa nazariyasi(nota yo'li va unda notalar joylashuvi)ni o'rgatish uchun kichik mashinalarga nota nomlarini yopishtirib, ularni nota yo'lga to'g'ri joylashtirishni o'rgatish mumkin.

Kollaboratsiya – o'quvchilarning hamkorlikda ishlay olish, yetakchilik, jamoani shakllantirish, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish, muzokaralar olib borish va bir-birini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari o'rgatadi.

Musiqa darslarida hamkorlikda ishlash juda zarur. Hamkorlikda ishlashga eng yaxshi misol jamoa bo'lib kuylashdir. Bu jarayonda o'quvchi boshqa bolalarni tinglashi, ulardan ilgari o'ylab yoki orqada qolib ketmasligi zarur. Xor ijrosida ham xuddi shu talablar mavjud. Jamoada ishlashni xor jamoalari, ansambllar, orkestrlar, raqs dastalari misolida tushuntirish mumkin. Musiqiy topshiriqlarni bajartirishda o'quvchilarni jamoalarga

bo'lib ishlash kerak. Bir jamoada past o'zlashtiruvchi hamda yuqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchini birlashtirsak, hamkorlikda ishlashi natijasida bilimlarni shakllantirishimiz mumkin. Buning natijasida siz bergan savollarga faqat "a'lochi"lar javob bermaydi. Yoki "javobini bilgan o'quvchilar jim o'tirsin", deydishga hojat qolmaydi.

Kommunikatsiya – o'quvchilarni o'zgalar bilan muloqotga kirishish, muloqotdan cho'chimaslik, savol berish, savollarga javob berish, suhbatdoshini tinglash, uni tushunish, suhbatdoshiga moslashish, o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashga, dalillashga o'rgatadi.

Muloqot musiqada ham juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning yana bir vositasi sahnalashtirish faoliyatidir. Bunda bola ma'lum bir obrazga kirib, muloqotdan cho'chimaydi, fikrini aniq, ravon bayon etadi. Kommunikatsiyaning nechog'lik ahamiyatli ekanini xor va orkestrda dirijyorning vazifasi bilan ham ko'rsatish mumkin. Dirijyorning "muloqoti" har bir ijrochi uchun juda zarur. Musiqa darslarida "Mikrofon" metodidan foydalanib, o'quvchilarni faol muloqotga jalb etish mumkin.

Ko'rib chiqqan yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. O'qituvchi izlansa, o'z ustida ishlasa, o'quvchilarda zamonaviy, hatyotiy ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qilsa, albatta, o'z ishida natijaga erishadi.

Abdurasul RAHIMOV,
NavDPI magistranti,
Romitan tumanidagi
1-IDUM o'qituvchisi



Tarix saboqlari

Milliy ta'lim: kecha ta'lim tizimidagi muammolar tarixiga nazar

“Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur!”

Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq”.

Shavkat MIRZIYOYEV

72 kun yashagan Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zosi, maorif vaziri Nosirxon To'raning bir necha bor qamoqqa olinishi va surgun qilinishi qismatini eslaylik! 1925-yili Nosirxon to'ra “sovetlarga qarshi siyosiy faoliyat olib borгани uchun” degan soxta ayblov va tuhmatlar bilan (1928-yilgacha) Orenburgga surgun qilingan. Sovetlar tomonidan qo'lga olingan Nosirxon to'ra 1930-yil 27-noyabrda SSSRning davlat xavfsizligi bo'yicha maxsus organi qarori bilan otishga hukm qilinadi. Shuningdek, uning ko'plab safdoshlari va shogirdlariga ham o'lim jazosi berilgan. Chunki Nosirxon to'radan ta'lim olgan yoshlar ulg'aygach o'zlari ham maktablar ochib, yosh avlodni ilmiy qilib tarbiyalashga urinishgan.

Nosirxon to'raning shogirdi, hayoti davomida islom fiqhi va tarixiga oid 47 ta asar yozgan Mubashshirxon to'ra (1896–1977) maktablar ochgan, ta'qib kuchaygach 1930-yili vatanni tark etishga majbur bo'ladi. Nosirxon to'raning shogirdlaridan yana biri, yirik olim, adib va tarjimon Oltinixon to'ra (1894–1992) 1932-yili sovetlar tuzumi tazyiqi sabab vatanni tark etishga majbur bo'ladi. “Masjid al-harom” va “Masjid an-nabaviy”da mudarrislik qilgan Oltinixon to'ra Qur'oni karim ma'nolarini ilk bor o'zbek tiliga tarjima va tafsir qilgan.

Nosirxon to'ra bilan bir qatorda, undan oldin va keyingi davrlarda jadid-murabbiylarimiz va milliy ozodlik uchun kurashgan ziyolilarimizni qatag'on qilgan sovet hokimiyatining ta'lim siyosati Rossiyadan tashqari boshqa hududlarda asosan “arzon ishchi qatlami”ni shakllantirish bo'lgan. SSSRning 1930-yil 14-avgustda qabul qilingan “Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqida” qonuniga ko'ra, 8–10 yoshli bolalarni boshlang'ich maktablarning kamida 4 yillik kursi hajmida umumiy majburiy o'qishga jalb etish, 11–15 yoshli mehnat maktabining 4 yillik bosqichida o'qimaganlar uchun tezlashtirilgan 1-2 yillik o'qishlar tashkil etish, sanoat shaharlarida esa 1930-1931-o'quv yilidan 7 yillik majburiy maktabga bolalarni tortish masalalari ko'rsatilgan edi.

Sovet hokimiyati bu zamin ta'lim tizimini nazorat qilmagan davrda jadid milliy ziyolilarimiz o'z milliy ta'lim andozalari va yaratgan darsliklari asosida qisqa fursat ichida xalqning hatto harf tanimaydigan asosiy qismini ziyoli qila oldi. Hatto ularni o'z hisoblaridan chet davlatlarga o'qishga jo'natishdi. Bu ishlarning natijalarini ko'rgan Sovet hokimiyati yaxshi bilardiki, bu zaminda ta'lim tizimi isloh qilinib o'z natijalarini beradigan bo'lsa o'lka rivojlanib, mustaqillik uchun kurashib, unga albatta erishishi mumkinligini ham bilardi. Shuning uchun ham maorif tizimida qatag'on siyosatini amalga oshirdi. Birgina misol, 1933-yil 27-martda VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqidagi max-

sus qaror qabul qiladi. Tozalash deb atalgan bo'lsa-da, amalda ta'lim tizimining fidoyi xodimlari, sifatli ta'lim berayotgan o'qituvchilar sohadan chetlatiladi, ya'ni qatag'on qilinadi. Sovet tuzumi andozasidagi ta'lim tizimini o'rnatish uchun ham maorif tizimida milliy kadrlarni yo'qotish amalga oshirildi. Sovet hokimiyati hattoki chet elga (Turkiya, Germaniya,...) o'qishga jo'natilgan talabalardan sovet davlati uchun ayg'oqchilik qilishni talab qilish holatlari ham kuzatilgan. Bosh tortgan talabalar esa ta'vil vaqti uylariga qaytgach, siyosiy ayblovlar qo'yilib qamoqqa olingan yoki o'qishga qaytib borishini cheklab qo'yishgan. O'z vatanidagi bunday qatag'on siyosatidan xabar topgan ayrim talabalar esa vataniga qaytmasdan, o'sha davlatlarda qolishga majbur bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida erkak o'qituvchilarning armiyaga chaqirilishi va ko'plab maktab binolarining gospitalarga aylantirilishi sabab darslar 3 smenada olib boriladigan va har bir dars 40 minutdan bo'ladigan bo'ldi. Musiqi va rasm darslari esa olib tashlandi. Eng katta muammo, urush boshlanishidan oldin, 1940-yil may oyida O'zSSR Oliy Soveti tomonidan “O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish to'g'risida”gi qonun qabul qilingan edi. Avvalgi darsliklar yig'ib olingani, yangi yozuvdagi darsliklarni chop etishga ulgurilmaganligi sababli ham darsliklar yetishmasligi muammosi paydo bo'ldi. Urush yillarida O'zbekistonga milliondan ortiq bolalar evakuatsiya qilinganligi sababli bolalar uylari ochilib (1943-yili 154 ta, 1945-yili 242 ta), ularni o'qitish masalasi ham ko'rildi. Bu davrdagi eng katta muammo o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi bo'ldi. Ushbu muammo keyingi 10–15 yillikda ham davom etdi.

Sovet hokimiyati davrida umumta'lim tizimida ma'lum vaqtgacha, ya'ni 1956-yil 15-iyundagi qaror qabul qilinguniga qadar maktab ta'limi ham pulli bo'lgan. Bu siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad budjetni to'ldiribgina qolmasdan, o'sha davrda (ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiyotni tezroq qayta tiklash uchun ham) arzon ishchi kuchini ishlatayotgan sovet hokimiyati yaxshi bilardiki, ota-onalar farzandlarini o'qitish uchun ham yanada ko'proq ishlashga rozi bo'lar va bunga majbur ham edi.

Urushdan so'ng sovet hukumati ta'lim sifati yuqori natija berayotgan Shvetsiya ta'lim tizimini o'zida joriy etishni boshladi. Shvetsiya maktablari-da o'qish 1930-yildan 7 yil, 1950-yildan esa 8 yil majburiy deb e'lon qilingan. Sovet hokimiyati tomonidan 1949-yilda qabul qilingan qonunga binoan umumiy majburiy 7 yillik ta'lim tizimiga o'tildi. 1962-1963-o'quv yilidan boshlab esa 7 yillik maktablar qayta tashkil etilib, 8 yillik maktablarga aylantirildi. Urush yillarida va undan keyingi davrda O'zbekiston hududiga ko'plab korxonalarining ko'chirib kelinganligi, yangi zavodlarning ochilishi natijasida arzon ishchi kuchiga katta ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu sababli ham, kasbga o'rgatish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi.

Maktab yoshidagi yoshlarni o'n yillik umumiy o'rta ta'limga o'tkazishga 1975-yili, ya'ni sovet hokimiyati o'rnatilgandan

deyarli 60 yil o'tibgina erishilgan, xolos. Vaholanki, AQSH XX asrning boshlariga qadar 8 yillik ta'limdan foydalangan bo'lsa, 1930-yildan to'laonli 12 yillik ta'limga o'tgan.

O'zbekiston SSR asosan paxta yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mustaqillik e'lon qilinguniga qadar, 70 yil davomida erta bahorda dalalarda paxta chigiti ekilishidan tortib dekabr oyigacha paxta hosilini terib olishgacha bo'lgan barcha mehnat jarayonlariga maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jalb qilingan. Paxtadan tashqari, boshqa dala mehnatlariga ham. Paxtaga nisbatan “markaz siyosati” deb atalib, belgilangan reja bajarilmaguniga qadar dalalardan qaytish man etilgan. 70 yil davomida va hatto 90-yillarda ham “o'qituvchilarni va o'quvchilarni majburiy mehnatdan qaytarish, ularni faqtgina ta'lim berishga yo'ltirilish lozim” degan fikrni bildirgan har qaysi pedagog yoki ta'lim tizimi mutasaddisi jamiyatdan butunlay chetlashtirilgan. Sovet hukumatining bu siyosati ta'lim tizimiga aloqador har bir shaxsning jazodan qo'rqishi muhitini shakllantirib, markazning har qanday topshirig'i muhokama qilinmasdan bajarilishi shart degan tushunchaning o'rnatilishiga xizmat qildi.

Mustaqillik arafasida O'zbekiston maktablaridagi fanlarda milliy jihatlariga e'tibor, boshqa sovet respublikalaridagi maktablarga nisbatan ancha orqada edi. Ya'ni sovet hukumati mustamlaka davlatlarga nisbatan ta'lim tizimida hatto fanlarga ajratilgan dars soatlarida ham xalqaro tajribalardan farqli o'laroq markazning rejalari o'rnatilishini qattiq nazorat qilgan. Fikrimiz isbotini geografiya fani misolida ko'rishimiz mumkin. Geografiya faniga ajratilgan dars soatlari o'quv yili davomida SSSR Xalq ta'limi davlat komitetining buyrug'iga binoan 12 soat bilan cheklangan. Ammo Latviya, Litva, Estoniyada 68 soat, Ukraina va Gruziyada 34 soat, Qozog'istonda 24 soatni tashkil etishiga o'zlari erishgan. Biz ham boshqa davlatlar singari milliy jasorat ko'rsatish o'rni-ga, komitetning 12 soatlik belgilangan “reja”sini bajarganmiz. Boshqa respublikalarning maorif sohasi mutasaddilari dars soatlarini ko'paytirishga erishgan bir paytda, biz komitet buyrug'ini “a'lo” darajada bajaryapmiz deb markazga hisobotlar berib, boshqa davlatlar singari tizimni mustaqil isloh qilmadik.

Bugungi ta'lim tizimidagi muammolarning asl ildizi ham aynan o'sha 70 yil davomida markazning qattiqqo'llik bilan amalga oshirgan siyosati va bu jarayonlar 90-yillarda ham davom etganligidan. Endi bir tasavvur qilib ko'ring, erta bahordan mavsumiy tarzda dalalarga jalb qilingan o'quvchi va o'qituvchilar yozgi ta'tilgacha maktablarda sifatli ta'lim ololmasdi, nazorat butunlay yo'q edi. Senta-br oyida yangi o'quv yili boshlanishi bilan bir qatorda paxta yig'im-terim mavsumi ham boshlanar va bu jarayonlar dekabr oyigacha davom etar edi. Qish faslidagina ta'limda biroz erkinlik bo'lar, biroq qattiq sovuq sabab qator muammolar yuzaga kelardi. 80–90-yillarda maktablarda dars bergan o'qituvchilar hozirgi kunda “o'sha davrda oylik maoshlar ko'p bo'lmasa-da, o'qituvchilarga ko'plab imtiyozlar berilgan” deyishi tabiiy holat. Chunki sovet hukumati o'qituvchilar va ular yordami-

da o'quvchilardan ham tekin ishchi kuchi sifatida foydalanib, dalalardagi va hatto zavodlardagi mehnat jarayonlarini amalga oshirishgan. O'qituvchilarga berilgan ayrim imtiyozlar bahonasi asosida xalqaro maydonda sovet hukumatining ta'lim tizimiga va o'qituvchilarga munosabatini ijobiy ko'rsatish holatlari shakllangan bo'lsa-da, ta'lim tizimi ich-ichidan yemirilgan edi. Sovet davridagi 74 yillik vaqt mobaynida shakllangan muammolar 90-yillarda ham davom etgani tarixdan yaxshi ma'lum. Birgina misol, 1994-yili respublikadagi 2214 ta maktab ixtiyorida 3541 gektar ekin maydoni, 518 gektar bog' mavjud bo'lgan. Ayni shu yilning o'zida bu maydonlarda 2500 tonna paxta, 630 tonna g'alla va 282 tonna don mahsulotlari yetishtirilishi bilan bir qatorda, 25190 tonna poliz mahsulotlari va meva, 50 tonna yeryong'oq, 516,5 tonna sholi hosili olingan bo'lib, bu ekin maydonlaridagi barcha mehnat jarayonlari (ekin ekilganidan toki hosil yig'ib olinishiga qadar) yer ajratilgan va birlashtirilgan maktab xodimlari o'qituvchi va o'quvchilari tomonidan bajarilgan. Mustaqillikdan oldingi, sovet tuzumi davrida esa yuqoridagi raqamlar bundan bir necha barobar yuqori bo'lgan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, sovet hokimiyati davrida ta'lim tizimi hech qachon aniq bir dastur asosida amalga oshirilmagan bo'lib, ta'lim sifati rivojlanadigan bo'lsa SSSR tarkibidagi hududlar rivojlanib, mustaqillik uchun kurashishi va bunga erishishi mumkinligini tushunishar edi. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga e'tibor qaratmasdan, asosan mustamlaka hududlardan barcha qimmatbaho resurslarni o'zlashtirish va markazga tashish bosh maqsad qilingan. Ittifoq tarkibidagi hududlarni markazga qaram qilish orqali ham milliy manfaatlarini hech qachon inobatga olmasdan, ularning rivojlanishiga qarshi siyosat yuritilgan. Bu davrning ta'lim tizimi shu sababli ham sun'iy tarzda rivojlantirilmagan.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda maktab ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan yangi qonun va qarorlar, ularning ijrosi asosida yillar davomida jar yoqasiga kelib qolgan milliy tizimimiz tiklanmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozir bir yilda xalqaro fan olimpiadalarida erishayotgan natijalarimizga sovet davrida 10 yilda ham erisha olmaganmiz. Hozirgi kunda barcha turdagi majburiy mehnat bekor qilinib, o'qituvchilar va o'quvchilarning birdan-bir maqsad va vazifasi sinfxonalarda o'tirib “sifatli ta'lim – milliy tarbiya” muhitini shakllantirish bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'qituvchilarga toifa berish tizimidagi mavjud korruption holatlar bartaraf etilib, shaffoflik ta'minlandi. Ayniqsa, bir xil toifa va dars soatlariga ega o'qituvchilarning oylik maoshlari har oyda bir-biridan farq qilar edi. 2016-2017-yillarda oylik maoshlarni elektronlashtirish tizimini yo'lga qo'yilishi o'qituvchilarning oyligi bilan bog'liq necha yillardan buyon respublika miqyosida davom etib kelayotgan turli korruption holatlarni butunlay bartaraf eta oldi. O'z ustida ishlab, yuqori natijalarga erishgan yuksak ta'lim-tarbiya va bilimga ega, respublika va xalqaro fan olimpiadalarida va turli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallagan o'quvchilar va ularning o'qituvchilarini doimiy rag'batlantirib borish mexanizmi yo'lga qo'yildi. Buning natijasida o'qituvchilar orasida ham, o'quvchilar orasida ham erkin raqobat muhiti yaratildi.

Zavqibek MAHMUDOV,
FA Tarix instituti kichik
ilmiy xodimi

“Mening tajribam” tanloviga

DARSNI BETAKROR LAHZALARGA AYLANTIRAMIZ!

Maktabga ilk qadam qoʻygan bolaning orzulari olam-olam boʻladi. Salkam 25 yillik tajribamda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining har xil holatlarini kuzataman. Ularning faolligi-yu zukkoligi, ayrim hollarda ayyorligini ham toʻgʻri qabul qilishga oʻrganganman.

Oʻzim tez-tez qoʻllab turadigan quyi-dagi metodlarni sizlarga ham tavsiya qilaman.

“Men katta boʻlsam...”

Bu metodimni deyarli har darsda qoʻllayman. Dorskada “Men katta boʻlsam...” yozuvi osigʻlik turadi. Baʼzi hollarda darsga, mavzuga ozgina eʼtiborsizroq oʻtirgan oʻquvchimga yozuvni tutqazaman. Oʻquvchim qogʻozni oʻqiydida, kelajakdagi orzu, maqsadlarini aytadi. Qoʻshimcha sifatida partadoshi yoki boshqa bir oʻquvchidan soʻrayman. Javoblar har xil boʻladi. Masalan:

- ◆ Men katta boʻlsam shifokor boʻlmoqchiman.
- ◆ Men katta boʻlsam oʻqituvchi boʻlmoqchiman.
- ◆ Men katta boʻlsam harbiy boʻlmoqchiman.
- ◆ Men katta boʻlsam dasturchi boʻlmoqchiman.

Javoblar umumlashadi va oʻquvchilardan umumiy xulosalar olinadi: demak, men kelajakda kim boʻlishimdan qatʼi nazar, hozir oʻqishim, vazifalarni bajarishim kerak. Bu jarayon koʻp takrorlangani bois, oʻquvchilarga yod boʻlib ketadi. Baʼzida, kecha harbiy boʻlaman, degan oʻquvchi, bugun dasturchi yoki boshqa kasbni ham aytadi. Sababi soʻralganida, otasining yoki akasining kasbini egallamoqchi ekanligi maʼlum boʻladi.

Bu metod, avvalo, oʻquvchining aqliy faoliyatini charxlaydi, fikrlashga, oʻylab mulohaza qilishga, kasblarning bir-biridan afzalligini, farqini ajratishga oʻrgata-

di, oʻquvchilarni kasblarga yoʻnaltirishga xizmat qiladi.

“INDAMA... JIM...” mashqi

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari koʻpincha oʻzlari bilmagan holda oʻqituvchi bergan savollarga javob berishga shoshib, oʻrnidan turib ketadilar yoki javobni sherigi aytib qoʻymasligi uchun, undan avval ovozinig boricha baqirib aytib yuboradilar. Shunday hollarda sinfdagi shovqinni bosish, tartibga keltirish, oʻquvchining sabrini sinash maqsadida bu mashq oʻtkaziladi.

Bunda oʻqituvchi savol beradi. Oʻquvchi qoʻl harakatlari, yaʼni mimika orqali javob beradi. Masalan: soʻzlarni boʻgʻing boʻlish. Oʻqituvchi **OLMA** soʻzini aytadi yoki rasmini koʻrsatadi. Oʻquvchi boʻgʻing boʻlib, qoʻlida 2 ni koʻrsatadi. Soʻzlardagi unli tovushlarni, nechta harf birikmasi qatnashganini ham shu tarzda koʻrsatishi mumkin.

- ◆ OL-MA:
- ◆ Nechta boʻgʻin? (2 ni koʻrsatadi)
- ◆ Unli tovushlar nechta? (yana 2 ni koʻrsatadi)
- ◆ Harf birikmasi bormi? (yoʻq ishorasini qiladi)

Matematika darslarida ham bu mashq juda qoʻl keladi. Ifoda tuzilib aytiladi, oʻquvchilar qoʻllarida koʻrsatadilar. Masalan, 10 bilan 6 ning ayirmasi... Qoʻllarida 4 ni koʻrsatadilar. Baʼzan oʻquvchilar yozma holatda ham javob berishi mumkin. Masalan, 30 bilan 20 ning yigʻindisi. Ular qoʻllaridagi qogʻozga 50 sonini yozadi va koʻrsatadi. Bu mashqda gapirgan yoki boshqa ovoqli harakat

qilgan oʻquvchiga jarima berilishi mumkin. Topshiriqlarni puxta bajargan oʻquvchilarga ragʻbat beriladi.

Bu mashqni Tabiiy fan, Tarbiya darslarida ham qoʻllash mumkin. Mavzular boʻyicha savollar oʻqib eshittiriladi. Oʻquvchilar koʻzlarini yumadilar. Toʻgʻri javoblar uchun oʻng qoʻl, notoʻgʻri javoblar uchun chap qoʻl koʻtariladi.

Masalan:

- ◆ Koʻz – noyob moʻjiza (oʻng qoʻl koʻtariladi).
- ◆ Oʻzbekiston poytaxti – Samarqand(chap qoʻl koʻtariladi).

Bu mashq orqali oʻquvchilar diqqatini jamlashga, hushyorlikka oʻrgatiladi.

Ayrim jarayonlarda oʻquvchilarda darsga salbiy munosabat kuzatiladi. Masalan, dorskada oʻzini nojoʻya tutish holatlari, partadoshi bilan dars payti turli munosabat bilan tortishish, uy vazifasini bajarib kelmaslik va shunga oʻxshash holatlarda oʻquvchilarga tanbeh berish yoki “2” baho qoʻyib jazolash oʻrniga sinf xonasi burchagida joylashgan **“Jarimalar maydonchasi”**ga olib kelinadi.

“Jarimalar maydonchasi”

Bu metod yuqorida taʼkidlangan holatlarda qoʻllaniladi. Yaʼni, maydonchada doiracha shaklida rangli qogʻozlar orqasiga shartlar yozilgan. Jarimaga tortilgan oʻquvchi istagan rangni tanlaydi va orqa tomonida yozilgan shartni oʻqib javob beradi.

- ◆ Undosh tovushlar nechta?
 - ◆ Unli tovushlar qanday hosil boʻladi?
 - ◆ Qoʻshishning hadlarini sanang.
 - ◆ Oʻzbekistonda nechta viloyat bor?
- Shu kabi savollarga javob berishi bilan oʻquvchilar “Jarima maydonchasi”dan chiqadilar.

Sinfxonamda globus va Oʻzbekiston xaritasi bor. Oʻquvchilarim 2-sinf. Koʻpincha globusdan, xaritadan foydalanishga

oʻrgataman. Globusdan dunyodagi katta-katta davlatlar, okeanlarni, Oʻzbekiston xaritasidan esa viloyatlar va ularning joylashishi haqida maʼlumotlar beraman va bilimlarini tekshiraman. Har kuni takrorlanib turadigan bu mashqlar natijasida deyarli barcha oʻquvchilarga hamma maʼlumotlar yod boʻlib ketadi. Baʼzida “Jarima maydonchasi”ga tushgan oʻquvchilar xaritadan savol berishimni soʻraydilar.

Sababsiz darsga kelmagan, ertalabki oʻquvchilar yigʻini(ertalabki zaryadka)ga yetib kelmagan, darsga kech qolgan “aybdor”larga ham aynan mana shu xaritadan “Falon viloyatni koʻrsating?”, “Qaysi viloyat bilan chegaradosh?” kabi savollar beriladi.

Har dars soʻngida oʻquvchilar bilan birgalikda “Men katta boʻlsam...”ni shior sifatida aytadilar. Bir oʻquvchi “Maqsadimga erishishim uchun...”, deb gapni boshlaydi, qolgan oʻquvchilar tartib bilan fikrni davom ettiradilar.

- ◆ Kitob oʻqishim kerak.
- ◆ Vazifalarni puxta bajarishim kerak.
- ◆ Kattalarni hurmat qilishim kerak.

Har kuni takrorlanadigan bu javoblar oʻquvchilar ongiga singadi. Qaysidir zukko oʻquvchi hech kim aytmagan yangi fikrlarini ham aytadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, bugungi kun oʻquvchisi juda dadil, hozirjavob va qiziquvchan. Ularga eʼtiborimizni aya-sak, yangilik yaratmasak, ular bilan birga ishlamasak bugungi kun talabiga javob berolmaymiz. Darslarda qoʻllagan metodlar, mashqlar orqali oʻquvchini Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashimiz, erkin va mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, har bir jarayondan xulosalar chiqarishga oʻrgatishimiz kerak.

Rahbaroy MELIBOYEVA,
Uchkoʻprik tumanidagi
5-maktabning oliy toifali
boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Kuzatuv

ZAMONAVIY TAʼLIM “UZOQ MASOFA”NI YAQINLASHTIRADI

Oldinlari dars jarayonida oʻqituvchi birlamchi hisoblanib, oʻquvchilar faqat tinglovchi sifatidagina ishtirok etishardi. Bugungi taʼlim tamoyillariga koʻra, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi “uzoq masofa” oʻrnini doʻstona munosabat egalladi. Bunday sharoitda ikki subyekt oʻrtasidagi munosabatni neytral ushlab turish oʻqituvchiga katta masʼuliyat yuklamoqda. Birinchi navbatda u keng bilimga ega boʻlish bilan bir qatorda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish koʻnikmasiga ega boʻlishi ham talab etilmoqda.

Kompyuter ommalashmagan davrlarda eng namunali maktab oʻqituvchilari dars oʻtish uchun yarim tungacha koʻrgazmali qurollarni qoʻlda tayyorlashgan. Afsuski, boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi tomonidan tayyorlangan bunday koʻrgazmalar bir marotaba ishlatilib, keyingi yillar uchun yaroqsiz holga kelib qolgan: qogʻozlar sargʻayib ketgan, yozuvlari oʻchgan va hokazo. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari-mizni kengaytirib, bu borada qator qulayliklar yaratdi. Masalan, kompyuterda ishlangan surat, slaydlar yoki maʼruza matnlarini arxiv sifatida saqlash va, eng asosiysi, keyingi faoliyatda yangi oʻzgartirishlar bilan boyitib yana qoʻllash mumkin. Mutaxassislarning fikricha, bola koʻpi bilan 20 daqiqa darsni tinglash xususiyatiga ega. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, inson eshitganidan koʻra, koʻrganini koʻproq yodida saqlar ekan. Demak,

oʻquvchilarni darsga qiziqitirish orqali mavzuni toʻliq oʻzlashtirishlari va boy tasavvurga ega boʻlishlari uchun dars jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Qolaversa, sinfdagi oʻquvchilarning oʻzlashtirish qobiliyati ham turlicha. Shu bilan birga 45 daqiqalik dars davomida har bir bola bilan ishlash imkoniyati kamligi taʼlim sifati va samaradorligini toʻliq taʼminlanishiga toʻsqinlik qiladi. Eski qolipdagi dars berish usulidan voz kechib, noanʼanaviy usullardan foydalanish bolani erkin va mustaqil fikrlashga oʻrgatadi. Ayniqsa, dars jarayonida oʻqituvchi tomonidan mavzuga oid videoroliklar, animatsion oʻyinlar, slaydlardan foydalanish bolalarning darsda qiziqib ishtirok etishiga hamda mavzuni toʻliq qabul qilishiga yordam beradi. Oʻz oʻrnida, oʻqituvchi ham mavzuga oid materiallar toʻplash jarayonida axborotlarni aql bilan saralab olish hamda xolis axborotni noxolis axborotdan ajrata olish mahoratiga ega boʻla boshlaydi.

Qolaversa, AKT hayotimizga jadal kirib kelishi vaqtini tejash imkonini ham beradi. Bilamizki, sinfdagi oʻquvchilarning ota-onalari “ota-onalar majlisi”da birdek qatnasha olmaydi. Shu maʼnoda internetda “Oʻqituvchi, oʻquvchi va ota-ona uchligi”dan iborat mustahkam mulot muhitini yaratish juda zarur. Buning uchun sinf rahbarlari yoki oʻqituvchilar biror ijtimoiy tarmoqda shaxsiy

profil yaratib, sinfdagi barcha oʻquvchilarning ota-onalari bilan masofadan turib muloqotga kirishadi. Deylik, biror oʻquvchi darsda qatnashmadi yoki uyga vazifani bajarmadi. Shunda oʻqituvchi darhol oʻzining shaxsiy profili orqali oʻquvchining otasi yoki onasidan buning sababini aniqlashi mumkin. Shuningdek, har bir oʻquvchining oilasidagi umumiy ruhiyatni his etish, bola kayfiyatini, uning kun tartibini aniqlash imkoni tugʻiladi. Hattoki, oʻquvchi, ota-onasiga aytolmagan ichki tuygʻulari, muammolari, kechinmalari, oʻy-fikrlari va sirlarini bilvosita oʻrtoqlashadi. Eng muhimi, masofadan turib qilingan muloqot zamon va makon tanlamaydi. Yaʼni siz xohlagan joyda va vaqtda muloqotga kirishishingiz mumkin. Demak, oʻqituvchi masofadan turib oʻquvchiga taʼlim beribgina qolmay, ota-onalar bilan birgalikda yoshlarni tarbiya ham qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oʻqituvchi oʻquvchilarda AKTdan foydalanishda hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olingan maʼlumotlarni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi koʻnikmalarni hosil qilishga qodir boʻlishi kerak.

Iroda MULLAJONOVA,
Piskent tumanidagi
40-maktabning boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisi,
“Shuhrat” medali sohibasi,
Xalq taʼlimi aʼlochisi



Nuqtayi nazar

Baxtiyor MENGLIYEV:

“Har bir inson ilm qilish huquqiga ega”

AMALIYLIK

Yaqin o'tmishda nomzodlik dissertatsiyasi kamida 10–15 yilda himoya qilingan. OTM va ITMlar nihoyatda “muhtasham” qo'rg'on edi. Ilmiy ish uchun mavzu olish, mavzu olish uchun ustozni rozi qilish misoli buyuk dohiydan rozilik olish kabi mushkul va zahmatli ish edi. Haqiqiy jarayon esa mavzu olingach boshlangan: “Biz 10 yilda himoya qilganmiz, sizlarga yo'l bo'lsin” (Avlodlar ota-bobolari kabi yashashsa, u yurtda taraqqiyot yo'q demak. Rivojlanish har narsani osonlashtiradi, hatto ilmni ham. Bir olim 28 yilda qilgan lug'atini bugun super kompyuter 20 soniyada bajarmoqda) shioriga mukammal amal qilinadi, ish yozish yuz azob, uni himoya qilish esa ming azob edi. Ilmiy ish himoya qilganlar esa kamida tuman hokimi darajasidagi noyob va e'tiborli bo'lib aslida esa bu shunchaki pufak edi. Aksariyat ilmiy ishlar global miqyosda “velosipedning yangi turini kashf qilish”dek bo'lgan. Hattoki lokal muammolarga ham “malham bo'ladigan” tadqiqotlar sanoqli edi. Chunki dissertatsiya yozishda ilmiy-tadqiqot qilish tamoyillariga aksariyat hollarda amal qilinmas, amaliyligiga o'ga teng ishlar edi. Hatto ilmiy ish qilish haqida tuzukroq risola ham topa olmaymiz.

Ustoz Baxtiyor Mengliyev esa yozilgan har qanday tadqiqot “yirtiqqa yamoq bo'lishi kerak” – hayotiy bir muammo-ga yechim bo'lishi kerak deb yondashadi. Aristokrat olimlar uchun muammo emasdek tuyilgan ilmiy muammolar, aslida muammolarning ildizi ekanligini ochib berishga, shunga doir tadqiqot mavzulari berishga, shogirdlari bilan tadqiqotlar bajarishga harakat qildi va qilmoqda. Baxtiyor Mengliyev tilshunoslik – amaliy fan ekanligini, iqtisodiyotga xizmat qilishini o'zbek tilshunosligi miqyosida ochib berdi. Korpus lingvistikasi, lingvistik kriminologiya, lingvistik ekspertiza va lingvodidaktika sohasida ilmiy ishlar qilinmoqda va amaliy loyihalar bajarilmoqda. Shogirdlari bilan yandeks, google kabi yirik kompaniyalar bilan o'zbek tilining amaliy tomonlari bo'yicha loyihalar bajarilmoqda.

Umuman, o'zbek amaliy tilshunosligiga tamal toshi qo'yildi.

ORIGINALLIK

Ustoz Mengliyev shogirdlariga olimlarning uch toifasi haqida ko'p va xo'p o'g'it bergan. Bunga ko'ra olimlar uchga ajratiladi:

1. **Generator olimlar** – sohada generatorlik qiladi, jamoasi bilan birgalikda ilmiy yangiliklar o'chadi, amaliy mahsulotlar ishlab chiqadi.

2. **Transformator olimlar** – bu xud-diki transformator kabi. Transformatorlar generator ishlab chiqqan tokni muhitga moslab o'tkazib beradi. Ya'niki jahon miqyosida ochilgan ilmiy yangiliklarning milliy sohalariga tatbiqini amalga oshiradi, analogini yaratishadi.

3. **Schyotchik olimlar** – bu xud-di schyotchik kabi bo'ladi. Faqat tok o'tkazadi va ishlatilgan tokni hisoblab boradi. Bu toifadagi olimlar “or-achilik” qiladi. Kimdandir pulini olib, kimgadir ish yozdirib beradigan olimlar.



Bu toifa olimlar ilmning dushmanlari hisoblanadi.

Ustoz Mengliyev shogirdlarini doim generator olim bo'lishga undaydi va undamoqda. Domlaning yana bir qarashini sizga yetkazaman, ustoz olimlarning yana uch toifasi haqida doim gapiradi. Bunga ko'ra olimlar uch guruhga bo'linadi:

1. **Huquqiy jihatdan olimlar** – bu toifa olimlarning faqatgina olimligini tasdiqlovchi diplomlari bo'ladi. Ilmiy ishini o'zi va shogirdlaridan boshqa hech kim o'qimaydi. Hisobda bor, amalda yo'q olimlar.

2. **Sotsial olimlar** – bu guruh olimlar sohada muhim ilmiy yangiliklar qiladi. Lokal yoki global miqyosda e'tirof etiladi. Ilmiy ishlaridan jamoatchilik keng foydalanadi. Bunday olimlar ilm-fan uchun misoli gavhardek.

3. **Ma'naviy olimlar** – bu guruh olimlar ma'naviy va madaniy jihatdan barchaga o'rnak bo'ladi. Inson jamiyat ichida olimlik rutbasini yelkada ko'tarib yurar ekan, aytadigan fikriga, qiladigan ishiga, amaliga e'tibor beradi. Bunday olimlar ilmga, insonga va olamga bo'lgan munosabatida alohida nuqtadonlik, hilm bilan yondashadi. Eng muhimi, bu tabiiy bo'ladi va ularga yarashadi. Bu xislatga ega bo'lish barcha olimlarga ham nasib etavermaydi. Bu xislatga ega bo'lganlarning barchasi ham olim bo'lavermaydi.

Eng yaxshisi, uch xislatni o'zida jam etgan olim hisoblanadi. Bunday olimlar ilmda “ko'hinur” hisoblanadi.

Ustoz Mengliyevning menga ta'sir qilgan o'gitlaridan biri: *“Birov aytgan gapni aytmang, ilmda o'zingizning so'zingiz bo'lsin. Ro'yxatda ham, son-sanoqda ham, amalda ham bo'ling. Bu oson emas. Manbalarini o'rganib, muammoning sababi nimada, qanday oqibatlarini hosil qilmoqda, shu paytgacha qanday o'rganilgan, uni qanday usullarda hal etish mumkin, eng yaxshi yechim qaysi biri kabi savollarga javob qidiring”*.

VAQTNI BOSHQARISH

Ustoz Mengliyev shogirdlariga o'rgatgan eng muhim ko'nikmalaridan biri “vaqt menejmenti”. Inson o'zini vaqt hukmiga tashlab qo'ymasligi kerakligini tushunishi lozimligini bot-bot aytgan. Ustoz ilmiy ishni yozish uchun o'ziga xos grafik tuzib bergan va grafikni bajarishingizni muntazam nazorat qiladi:

XOLISLIK

Ustoz: “Ilmiy ishda eng muhimi – xolislik”, deydi. Hattoki o'z farzandi yoki shogirdi bo'lsa ham, noto'g'ri ish qilganiga ishonchi komil bo'lsa, uning yonida turmaydi, himoya qilmaydi, haqni gapiradi. Yoki mening shogirdimni asossiz qiynagan eding deb, boshqa olimlarning shogirdlariga ozor bermaydi. Agarda qachondir chegaradan chiqib, ustozga qasddan zarar berishga yoki o'zining borligini isbotlashga harakat qilgan biror olimning shogirdi no'noqroq ishini taqrizga bersa, ishni o'qib “qozilik qilishga” shaylanmaydi, balki dissertantni yoniga chaqirib, birgalikda beg'araz haftalab ishlab, ishni to'g'rilashga harakat qiladi. Bir safar “Ustoz nega shunday qilasiz?” deganimda. “Bu – ilm yo'lga yangi kirib kelayotgan tadqiqotchi, tajribasiz. Ayb bunda emas, ustozida. Bunga to'g'ri yo'lni ko'rsatish mening burchim”, degan edilar.

TOLERANTLIK

Ilm shunday bir ummonki, bunda har bir olimning o'z qarashi bor. Bu qarashlar ko'pincha ustma-ust tushmaydi. Natijada olimlar bir-birini tan olgisi kelmaydi. Olimlarga dushman kerak emas, o'zlari yetadi. Haqiqiy olimlar esa tolerant bo'ladi. Dunyoni, ilmni o'z qarichi bilan o'lchamaydi. O'z qarashlariga mos kelmasa, boshqalarni mutlaq inkor qilishdan tiyiladi. Tadqiqot ishonchiliga amin

bo'lsa, tan oladi yoki xalaqit bermaydi. “Bu foni dunyo va biz barcha ilmlarning sohibi emasmiz. Bizga ilmdan bir zarracha berilgan” aqidasiga amal qiladi.

Baxtiyor Mengliyev ustoz “har bir inson ilm qilish huquqiga ega” deb hisoblaydi. “Menga ustoz bo'ling”, deb kelgan insonni sen “savodsiz ekansan” deb ko'ksidan itarmaydi. Yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Natija ba'zan biz kutgandek chiqavermasligi mumkin. Bunga doim ham ustoz aybdor emas. Agar aybdor deyish mumkin bo'lsa, balki ustoz bag'rikengligi – tolerantligi uchun aybdor.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ustoz Baxtiyor Mengliyevni yaqindan tanisangiz, kamtar, yumorga boy inson, tolerant, xolis, amaliy, lider olim ekanligining guvohi bo'lasiz.

MAQOLAGA MUNOSABAT:

Oyina.uz portalida e'lon qilingan “Ilmiy ishlardagi yolg'onlar: 90 foiz plagiat dissertatsiya, 100 dan oshiq ilmiy ishga rahbarlik qilayotgan fan doktorlari va egizak tadqiqotlar tahlili” maqolasi muallifi xulosalariga munosabatim. Avvalo, xolislik nuqtayi nazaridan ham jarayonni yaxshilab, batafsil o'rganish, individual xulosani ommaviy taqdim etishdan tiyilish lozim.

MAQOLA MUALLIFI XULOSALARI	MUNOSABAT
1. Ilmiy kengashlar sonini qisqartirish. Respublikadagi yetakchi oliy o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlarda soha yo'nalishlari bo'yicha 2-3 ta kengash qoldirilsa yetarli.	Bu xulosadan o'tmishni qo'msash sezilmoqda. Bu usul bilan muammoni mutlaq hal etib bo'lmaydi, balki sohada zo'riqishlarni keltirib chiqaradi. Doktorlik va falsafa doktorligi dissertatsiyalariga qo'yilgan talablarni o'zgartirish va ishlab chiqarishga xizmat qilmaydigan ishlardan voz kechish choralari ko'rish kerak.
2. Soha yo'nalishlari bo'yicha dissertatsiya mavzularini tartibga soladigan, ularning reyestrini yuritadigan muvofiqlashtiruvchi kengashlarni tiklash.	Sohalarga doir mavzular davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy buyurtma sifatida taqdim etilsin. Ijtimoiy ehtiyoj bo'lgan yoki kelajakda bo'ladigan mavzular bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilsin.
3. Plagiat aniqlangan tadqiqotchi va ularning rahbarlariga nisbatan jazo choralari qo'llash.	Plagiatga qarshi murosasiz kurashish tarafdoriman.

Bizningcha, ilmiy sohani rivojlantirish bo'yicha quyidagi ishlarni bajarish maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy-tadqiqot muhitini tabiiy rivojlantirish choralari ko'rish kerak. Bunda ilmiy-tadqiqot qilish uchun budjet mablag'larini OTM va ITMlarga ajratish amaliyotidan voz kechish, PhD va DSc institutini kontrakt asosida o'qish tizimiga aylantirilish hamda buyurtmachi tashkilotlar mablag'lari hisobidan kontrakt shartnomasini va tadqiqotchilarga stipendiya to'lash amaliyotini yo'lga qo'yish choralari ko'riladi.

2. Tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchi institutini birlashtirish va o'qish muddatini 4 yil qilib belgilash, birinchi yili ilmiy ish asosnomasini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot qilish metodologiyasi, bosqichlari, tamoyillari, usullari, natijalarni tahlil qilish bo'yicha SPSS, R va boshqa dasturlardan foydalanish hamda ilmiy xulosa shakllantirish bo'yicha o'quvlar tashkil etish, tadqiqotchilarning malakasini oshirish choralari ko'rish kerak. Doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun ham talablarni kuchaytirish lozim.

3. Tadqiqotchilar uchun tajriba maydonchalari, laboratoriyalar, kerakli ilmiy muhitni yaratish choralari ko'rish kerak.

4. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ilmiy jamoatchilikning birlamchi ijtimoiy talablarini yaxshilash uchun subsidiyalari ajratish amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.

Shohrux ABDURAHIM,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Farzand tarbiyasida xatoga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi

Yaqinda bir yumush bilan koʻchaga chiqdim. Kun issiq boʻlgani uchun avtobusda odam kam, jimjitlik hukm surgan.

Hamma oʻz xayoli ogʻushida ulovning yurishini kutib turibdi. Avtobusga oʻgʻlini qoʻlida tutgan yosh ayolning chiqishi jimjitlikka yakun yasadi. Chunki bola xarxasha qilib, yigʻlayotgandi. Ayol xijolat tortib uzr soʻradi. U oʻgʻli xohlagan oʻyinchoqni olib bermaganini aytib, oʻzini oqalay ketdi. Bola hozir 5 yoshda boʻlishiga qaramay, fikrlari-ni yaxshi tushuntira olmas, kun boʻyi uyda choy-nak-piyola-ni oʻynashni xush koʻrar ekan. Ota-onasi turli oʻyinchoqlarni xarid qilib, bolasiga tutganida

qayirilib ham qaramasdan, choy-nak-piyola oʻynashda davom etarkan. Ayol nolib, roʻzgʻori-da birorta choy-nak-piyola qozir maganligidan yozgʻirdi. Hozir oʻyinchoq xarid qilgani bilan farzandi baribir choy-nak-piyola oʻynayverishini taʼkidladi.

Oʻzimcha ayolni soʻroqqa tut-gim keldi. “Siz farzandingizning oʻyinchoqlarini u bilan birga hech oʻynab koʻrganmisiz? Axir, bola oʻyinchoqlarni emas, qoʻli-ngizda faqat choy-nak-piyolani koʻrgan boʻlsa, oʻyinchoqlarni qanday oʻynasin! Chunki bolalar

taqlid qilishni yaxshi koʻrishadi. Ota-onalar, ayniqsa, onalar farzandi uchun vaqt ajratib, ular bilan biroz shugʻullansalar, nati-ja boshqacha boʻlarmidi?”. Unga shunga oʻxshash fikrlarimni ayt-gim, hatto yengil tanbeh ham bergim keldi-yu, lekin tilimni tiydim. Hech narsa deymadim.

Masalan, bola bilan birga oʻyinchoqlarni oʻynab boʻlib, oʻyinchoqlarini ularning oʻzlariga yigʻishtirishni oʻyin tarzida oʻrgatsangiz, bolangiz tartib – intizomga odatlanadi, tozalikka rioya qila boshlaydi va bundan oʻzi ham zavqlanadi. Oritdan on qolqshlab qoʻysangiz bormi, oʻziga ishonch tuygʻusi kuchaya-di.

Koʻpincha koʻchada, jamoat transportida hozirgi zamon yoshlari “tarbiyasiz” boʻlib ket-ganligi haqida taʼnalar quloqqa chalinadi. Axir, ularni “tarbiya-siz” qilgan biz kattalar emas-mi?! Bolalar bilan munosabatda ota-onalar oʻzlarini badjahl qilib koʻrsatishsa, bolalarga mehr emas, qahrini sochsa, bolalar-ning diydasi qotadi. Ulgʻaygach esa ularidan qanday qilib mehr kutish mumkin?

Avtobusda yana bir ayolning gapi qulogʻimga chalindi. Ay-tishicha, qizi birinchi marta ona-

si uchun taom tayyorlab bergan, ona esa ovqatning bemaza eka-nini aytib koʻchaga chiqib ket-gan. Onaning soʻzlarini tinglar ekanman, shoʻrluk qizchani-ning ah-voliga achinib ketdim. Onamdan maqtov eshitaman, uni xursand qilaman deb ne umidda taom tayyorlasa-yu, uning munosabati shu qadar sovuq boʻlsa...

Bunday vaziyatlarda ona boshqacha yoʻl tutsa, masalan, “Qizim, ovqatga qandaydir taʼm yetishmayapti. Kel, birga-lashib tayyorlaymiz. Men sen-ga yordamlashib turaman, sen-ga ishonaman, sen uddalaysan, sendan yaxshi pazanda chiqadi” desa, bunday mehmi his qil-gan qizchani-ning qalbida umid uygʻonadi. Turli-tuman taom-lar tayyorlagisi keladi. Oʻziga ishonch ortishi tayin.

Tarbiyada biroz adashdiniz-mi, farzandingizdan mehr kut-mang. Shuning uchun farzand-mizga bor mehmrimizni hadya qilib tarbiyalasak, kelajakda oʻsha mehr oʻzimizga qaytadi. Mehmi farzandlarimizdan darigʻ tutmaylik, azizlarim.

Gulsunoy JAMOLOVA,
Angren shahridagi
34-IDUM direktorining
maʼnaviy-maʼrifiy
ishlar boʻyicha oʻrinbosari

Oʻzbek sheʼriyatining chaqmoq shoiri

“Sanʼat asari chaqmoq, mushak, kamalak singari lahzani obod qiladigan umri qisqa, magʻzi puch goʻzallik emas, balki adabiyotni bezaydigan, umri boqiy va magʻzi toʻq goʻzalikdir...” degan edi oʻzbek adabiyotining yorqin namoyandasi Abdulla Qahhor.

Darhaqiqat, dunyo adabiyoti tarixida shunday ijodkorlar oʻlganki, ularning ijodi xuddi mevali daraxtga oʻxshaydi. Bogʻbon oʻtib ketsa-da, u ekan daraxt koʻplarga huzur beradi.

Usmon Nosir oʻzbek adabiyotining chaqmoq shoirilaridan edi. U sheʼriyatga yangroq holda, sharshara boʻlib kirib keldi va unga yanada joziba baxsh etdi. Zamo-nasining yirik shoirilaridan biri Turob Toʻla Usmon Nosir haqida shunday deydi: “Us-mon sheʼriyatimizga shamolday kirib keldi. Balki boʻronday! U shunday toʻs-toʻpolon va toʻlqin bilan keldiki, uncha-muncha sheʼriy uslub va ijodni toʻs-toʻs qilib yubordi. Uni oʻzimizda “Oʻzbekning Lermontovi”, Mosk-va gazetalari esa “Sharqda Pushkin paydo boʻlibdi” deb yozishdi”...

Shoir sheʼrlarida fikr, tuygʻu sodda, le-kin harorat bilan, oʻziga xos oʻxshatish bilan bayon qilinganini koʻrishimiz mum-kin. Misralardagi jozibadorlik, ohangdorlik kishini oʻziga jalb qiladi. Ular oddiy yozil-ma emas, balki shoir yuragining tub-tubidan otilib chiqqan aks sado edi. Ushbu hayqiriqli nidolar har qanday shoirning ijodida uchray-vermaydi.

Buyuk isʼtedod sohibi — isyonkor shoir. Uning har bir ijod mahsuli kishini oʻziga rom etadi, hayotga boʻlgan muhabbatini yanada oshiradi. U oʻz sheʼrlarida goʻzallikni taran-num etish bilan birga, erkni, mustaqillikni, ozodlikni kuylaydi.

Usmon Nosir ijodining bir qismida inson qalbining sirli tuygʻularini tasvirovchi shoir

siymosi gavdalansa, tabiatning turfa ranglari-ni singdirgan sheʼrlarida nozik qalbli, ehti-roslir lirik qahramon kechinmalari tasvirla-nadi. Shoir chizgilari oʻziga xos uslubda goh nafis, goh quyuq holda uning oʻy-xayollari, his-tuygʻulari bilan uygʻunlik hosil qilgan va bu sheʼrlarga oʻzgacha jozibadorlik berganini koʻramiz. Usmon Nosirning quydagi sheʼri badiiy barkamolligi jihatidan ajralib turadi. Oqshom chogʻidagi tumanli togʻlar, ajoyib goʻzal tabiat manzarasi-yu yulduzli dengiz manzarasi koʻz oʻngimizda jonlanadi:

*Oqshom tushdi, togʻni tuman bosdi,
Yulduz bilan toʻldi dengiz osti.
Oʻynaydi shamol
Uxlaydi shimol...
Sohil qoldi, yana olgʻa qarab
Chiqdi asta togʻday buyuk korab
Suvlar chayqaldi,
Oy qalqib qoldi.*

Shoir sheʼr tasvirida koʻkda porlagan yulduzlar aksiy, yogʻdusi dengiz sirtidan tovlanishini “Yulduz bilan toʻldi dengiz osti” deya tasvirlayapti, agar shamollar uygʻonsa, sokin dengiz harakatga kelib, dahshatli tus olishi mumkin, boʻronga aylanishi hech gap emas. Shoir ana shunday boʻronlar-u dovul-larni yengib hamisha olgʻa intilib kelayotgan togʻday buyuk korabga tikilib, uning tim-solida chaqmoq, boʻronlardan tap tortmay-digan, maqsad sari intiluvchi, oʻlim, qoʻrquv, yoʻqlik qoʻrqita olmaydigan, tilaklari qoʻli-da, qaddi tik, irodali, mard insonni tasvirla-

*Ming yillardan keyin ham
Shunasa meni bogʻ im.
Ularim yangrab qolur...
Bir umrga oʻlmayman.*

– deya, shoir oʻlmadi, toki adabiyot, sheʼriyat bor ekan, shoirming ota-shaqab, joʻshqin misralari yashashda davom yetadi.

Bahodir ERGASHEV,
NamDPI “Tillar oʻqitish”
kafedrasida
stajyor-oʻqituvchisi



Taʼlim tizimida, xususan, zamonaviy maktablarda yangicha yon-dashuv uchun birinchi navbatda oʻquvchilarning dunyoqarashini davr talablariga moslashtirish zarur. Hozir koʻplab rivojlangan va rivojla-nayotgan davlatlarda axborot almashinishni tezlashtirish va insonlarga qulaylik yaratish maqsadida axborot almashinuvi jarayonini toʻliq va qisman elektronshtirish amaliyoti amalga oshirilmoqda, xususan taʼlim jarayoni ham bundan mustasno emas. Oʻzbekistonda soʻng-i yillarda taʼlim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish oʻquvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va koʻnikmalarni shakl-lantirish, taʼlim tizimlari hamda ilm-fan sohasi oʻrtasida yaqin hamko-rluk va integratsiyani, taʼlimning uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash

Zamonaviy maktabda yangicha yondashuv

borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekistonning yangi tara-qchiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish cho-ra-tadbirlari” toʻgʻrisida farmonini keltirishimiz mumkin. Taʼlimga yangi ilgʻor texnologiyalarni olib kirish, dars mashgʻulotlarida samarali va zamonaviy metod va texnologiyalarni qoʻllash davr talabidir. Ammo, haligacha taʼlim tizimida koʻplab yondashuv va metodlar ijodiy fikr-lash emas, talqin va tahlilga, yaʼni berilgan maʼlumotni tushunib, toʻgʻri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumlashtirib, xulosa chiqara olishga yoʻnaltirilgan. Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganiga qaramay, koʻpchilik oʻqituvchilar hali-hanuz oʻzlari va boʻlajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini oʻzlashtira olmayaptilar. Zamonaviy maktabda yangicha yondashuvda oʻquv mashgʻulotlarining avvaldan rejalashti-rilishidan voz kechish, boʻlajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ taf-akkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi gʻoyalarni oʻylab topishga majbur qilish taʼlim olishga boʻlgan mu-nosabatni oʻzgartirish, ularni yutuqlarga erishishga ragʻbatlantirishda asosiy omil boʻladi. Oʻqituvchi darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi gʻoyalarni taʼlim jarayonida sinab koʻrishga intilishi zarur.

Zamonaviy maktabda zamonaviy uslub jamoaning har bir aʼzo-si oldiga katta talab qoʻyadi va shu bilan birga oʻz-oʻzidan mamnun boʻlish, maʼmuriyatchilik, rasmiyatchilikni inkor qiladi. Uslub ijti-moiy rivojlanish qonunlarini, ishlab chiqarishni boshqarish tamoyil va usullarini bilishi asosida shakllanadi. Zamonaviy maktab rahbari menejment, iqtisodiyot va moliya, huquq, sotsiologiya va pedagogika asoslarini bilishi lozim. Bu fanlar butun menejmentga ilmiy qarashlar tizimini yaratish imkonini beradi. Boshqaruv faqat ilmiy bilimlarga ega boʻlishi emas, balki boshqarish sanʼatini bilishni ham talab qila-di. Zamonaviy rahbarlar yuqori malakaga ega boʻlishi, istiqbolni koʻra olishi va samarali xoʻjalik yuritishga imkon yaratuvchi, iqtisodiy fikr yuritish, shaxsiy intizomga ega boʻlish, topshirilgan vazifaga javobgar-lik hissi bilan yondashish, gʻoyalarni toʻplash, chiqishimlari va ishbilar-mon boʻlishi kerak. Rahbar doimo xotirjam va oʻziga ishongan boʻlishi, tashabbuskorlik koʻrsatishi, tavakkalchi boʻlishi kerak.

Bundan tashqari, zamonaviy maktablarda zamonaviy pedagoglar faoliyatini tashkil etish juda muhim sanaladi. Jumladan, zamonaviy pedagog ilgʻor, har tomonlana ziyarak, mehnatsevar, vijdonli kishi boʻlmogʻi lozim. Aytaylik, bugungi kun pedagogi har kuni yuz beray-otgan yangiliklardan xabardor boʻlmasa, kasbiga, faniga doir sara metodik materiallarni oʻqib-oʻrganmasa, ular xususida fikr-mulohaza yuritma olmasa, oʻquvchilarida namoyon boʻlgan qobiliyatni yuzaga chiqara olmasa, biz uni zamonaviy pedagog deya olmaymiz.

Sayyora YORQULOVA,
Olmaliq shahridagi
14-maktabning boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Kasbiga fidoyi muallima

Oramizda yoshlarimizni vatanga muhabbat, sadoqat, milliy anʼana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiya-layotgan, ustozlik kasbida halol va samarali ish olib borayot-gan ilgʻor pedagoglar koʻp.

Ana shunday elda hurmat qozongan, fidoyi ustozlardan biri Sayyora Yorqulova Olmaliq shahridagi 14-maktabning boshlangʻich sinf oʻqituvchisi. U 1975-yil 23-iyulda Jizzax viloyati Doʻstlik tumanida tugʻilgan. Guliston davlat univer-sitetini tamomlagan.

Muallimaning oʻquvchilari DTS talablariga javob beradi-gan faol va namunali xulqqa ega, ular maktabda oʻtkaziladigan tanlov va turli tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Sayyora Yorqulova oʻquvchilari bilan muntazam tarbiyaviy tadbirlar olib boradi. Maktabning rejali ishlarini bajarishda va jamoat ishlarida faol ishtirok etadi. U mehnatsevarligi va bilimdonli-

gi, tashkilotchiligi sabab qator yutuqlarga erishgan. Qolaver-sa, oʻz ijodiy ishlari, ilmiy izlanishlari va maqolalari uchun bir nechta sertifikat sohibasi, jumladan Xalqaro tadqiqotlar va taʼlim boʻyicha STEM sertifikatiga ega.

Boʻkidlash joizki, jonkuyar ustoz maktabda tashkil etil-gan “Istiqlol gʻunchalari” gazetasi-ning bosh muharriri sifatida maktab hayotini yoritib boradi. U boshchiligidagi tayyorlangan oʻquvchilar “Besh tashabbus” olimpiadasining maktab bos-qichida faol qatnashishdi. Sayyora Yorqulova taʼlim sohasida-gi koʻp yillik samarali mehnati natijasida Olmaliq shahar mak-tabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlangani soʻzimizning isbotidir.

Sabina XOLMURODOVA,
Romitan tumanidagi
9-maktabning boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

guruh faoliyati orqali baholanadi. Natijalar oʻqituvchi oʻz faoliya-ti samaradorligini kuzatib bori-shi va zaruriyati bilan oʻqitish metodikasining tahlili uchun kerak boʻladi. Summativ baholash — maʼlum bir oʻquv davri yoki oʻquv yilidan amalda qoʻllana boshlandi. Bu tizim asosan, bilish, qoʻllash va mulohaza qilish mezonlariga tayanib, oʻquvchilar olayotgan bilim, koʻnikma, malakalari taʼlim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, men dars berayotgan jismoniy tarbiya fanidan ilk marotaba BSB (boʻlim boʻyicha summativ baholash) top-shirayotgan oʻquvchilar juda mam-nun. Dars jarayonidagi formativ baholash bu — muntazam ravish-da rejalashtirilgan holda olib bori-ladigan jarayon boʻlib, unda dars davomida oʻquvchilar savol-javob, oʻyinlar, loyihalar, taqdimotlar,

Xulosa qilib aytganda, yangi joriy qilingan summativ va forma-tiv baholash tizimi kelgusida mak-tab taʼlimida inson omili, nisbiy baho berishga barham berish, oʻquvchilarni haqqoniy baholash-ga xizmat qiladi.

Dilmurod YAHYOYEV,
Uchtepa tumanidagi
238-maktabning I toifali
jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi

Maktabda 7-sinfdan 11-sinfga qadar fizika darslarini tashkil etish-da interaktiv metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, oʻquvchilarni mustaqil fikrlashiga qaratilgan metodlar alohida aha-miyat kash etadi.

Didaktik oʻyin texnologiyalari. Didaktika yunoncha “didaktikos” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, oʻqitish, oʻrganish maʼnosini bildiradi. Oʻquvchilarga bilim berishda yangi innovatsion texnologiyalardan foyda-lanib darslarni olib borish yaxshi natija beradi.

Ishechanlik oʻyin darsi – dars mavzusi boʻyicha masalalarni hal etish jarayonida oʻquvchilarning faol ishtirok etishini taʼminlash orqali yangi bilimlarni oʻzlashtirish mashqi. Masalan, fizika darslarida olgan nazariy maʼlumotlarni mustahkamlab olishda tavsiya etiladi.

Fizika darslarida interaktiv usullardan foydalanish

Rolli oʻyin darsi – dars mavzusi boʻyicha hayotiy masalalarni oʻrga-nishda oʻquvchilarga oldindan maʼlum rollarni taqsimlash va dars jara-yonida shu rolni bajarishlarini tashkil etib bilimlarni mustahkamlash darsi.

Kompyuter darsi – fizika darslarida oʻquvchiga mavzuga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual oʻquv kursi va shu kabilar) asosida oʻtiladigan dars.

Kimoshdi savdosi darsi – oʻquv fani ayrim boʻlimi boʻyicha bilimlarni har bir oʻquvchi qanchalik koʻp bilishini namoyish etish darsi. Bunda oʻquvchilarga savollarni berib, toʻgʻri javoblarni yutib olish taklif qilindi.

Yarmarka darsi – dars mavzusini boʻlaklar boʻyicha oldindan oʻzlashtirish oʻquvchilarning oʻzaro muloqoti asosida qiziqarli tushun-tirish orqali oʻtiladigan dars.

Oʻyin darsi – dars mavzusiga mos oʻyin orqali oʻquvchilarning oʻzlashtirishlarini tashkil etish darsi. Hozirgi zamon mutaxassislari, faoli-yat doiralari qanday boʻlishidan qatʼi nazar, yangi pedagogik texnologi-yalar boʻyicha keng koʻlamdagi bilimlarga, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ulardan foydalanish boʻyicha yetarli malakalarga ega boʻlishi kerak.

Fizika oʻqituvchisi asosan masalalar yechishni mukammal usulda oʻquvchilarga tushuntirishi, laboratoriya mashgʻulotlarini har bir oʻquvchi bilan birgalikda olib borishi masqadga muvofiq.

Fizika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish shart va zarur. Bu hozirgi zamon talabidir.

Nilufar TOʻXTAYEVA,
Jondor tumanidagi
36-maktabning fizika va astronomiya fani oʻqituvchisi

Tajriba, sinov, natija

Yangi baholash tizimi amalda

Yangi oʻquv yilidan maktab taʼlimiga summativ va forma-tiv baholash tizimi joriy etilishi oʻquvchilarning bilimini yanada mustahkamlashga turki boʻldi. Buning uchun Toshkent shahri-dan 60 ta, boshqa hududlardan esa 181 ta maktab tanlab olingan. Hozirgi kunda oʻquvchilarimiz 5 balli tizimida baholab kelin-moqda. Har olgan kunlik bahosi koʻproq choraklik bahosini chiqa-rishda asosiy, muhim rol oʻynaydi. Fikrimcha, buni unchalik ham xo-lis baholash deb boʻlmaydi, chunki oʻqituvchi bolalarni 5 balli tizimda nisbiy baholab keladi.

Yangi baholash tizimi mezon-larga asoslangan boʻlib, bunda oʻquvchining aniq qaysi bilim-i, qaysi koʻnikmasi asosida baholani-shi oldindan ishlab chiqilgan boʻla-di. Shu asosida ularning bilimi, uni amaliyotda qoʻllashi, mulohaza, mulohada qilish koʻnikmalari ham baholanadi. Formativ baho-lash asosan oʻquvchini yoʻnalti-rish, ragʻbatlantirish xususiyatiga ega. Bu oʻquvchiga koʻproq mo-tivatsiya berishga xizmat qiladi. Summativ baholashda esa maʼlum bir bob yakunida oʻquvchi egal-lashi kerak boʻlgan standart, bilim va koʻnikmalar baholanadi.

Mazkur mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimi bizning mak-

Baxtiyorlik nashidasi

Kechagina koʻchada bir ayolni uchratdim. Guldek yashnab, qoʻlida oʻzi kabi goʻzal guldasta bilan xursand holda ketib borardi. Unga qara-dim-u, qalbimda bayramona yorqinlikni his qildim. Uning shodligi mening ham kayfiyatimni koʻtarib yubordi. Baxtdan chaqnab turgan koʻzlaridagi tabassum uni yanada jozibali koʻrsatadi. Chehrasi nihoyat-da tiniq, kiyimlari oʻziga juda yarashgan, nazarimda u ayolning qalbidan taralib turgan nur yuzida aks etib turardi. Ayolning chehrasida barq urib turgan shodligidan oʻzimcha bir ajib hikoya oʻqidim: balki bu baxti-yor ayolning bugun tugʻilgan kunidir, balki u oʻqituvchidir, shogirdlari tabriklagandir, balki shifokor boʻlsa, uning shifobaxsh qoʻllarida davo topgan bir inson guldasta hadya etgandir, balki u fan nomzodidir, bu-gun oʻz nomzodligini aʼlo darajaga yoqlab olqish olgandir... Balki... Bu ayolni jamiyatimizdagi sohalarining ming bittasida tasavvur etdim-u, ammo uni savolga tutib, goʻzal tuygʻulariga xalal bergim kelmadi. Bi-lamanki, shunaqa baxtiyor dugonalarim bilan yurtimizning istalgan goʻshasida, maktab, shifoxona, paxta dalasi, yuldar bogʻchasi, sanʼat koshonalarida uchrashishim mumkin. Ular yuzlar, minglarcha. Negadir ular haqida yozgim keldi. Goʻzal va baxtiyor, har jabhada ilgʻor ayollarn-ing hayoti, mehnati hamisha ulugʻlanib, sheʼrlarga, qoʻshiqlarga, hikoya va dostonlarga mavzu boʻlib kelgan. Bugungi barcha ayollarimiz yangi Oʻzbekiston bergan goʻzal hayot, ozod mehnat zavqidan maszur, yarat-ish-yashnatish sanʼati baxti ila baxtiyordirlar. Ularning yuragida har vaqt ona vatan ishq, yurtga sadoqat tuygʻusi mujassam. Zamonamiz ilgʻor ayollarga gul ham, shohi atlas libos ham, tabassum ham juda-juda yara-shadi. Ular borki, farzandlar bor, ular borki, yigitlarning baxti bekam. Bu zamonda yashashning oʻzi yuksak baxtiyordlikdir.

Mamlakatimizda xotin-qizlar ijtimoiy hayotning hamma sohalarida juda katta rol oʻynamoqda. Buyuk Oʻzbekiston xalqi onani, mehnatkash ayolni, oʻz kasbining fidokori, har jabhada ilgʻor boʻlgan barcha xotin-qizlarni cheksiz izzat-hurmat qiladi. Mehnat baxt kalitidir. Biz mehnatdan baxt topgan kishilarmiz. Ana shuning uchun faxrlanmalarimiz, vatanimiz biz onalar, barcha ayollar istaganidek, tinchliksevar, insonparvar mam-lakat. Ularʼda uchraganmami mana shu ayol ham oʻz kasbining orqasidan eʼzoz topgan, farzand-u yaqinlari ardogʻidagi inson boʻlsa kerak...

Ana, u tez-tez odimlab asfalt koʻchada mendan uzoqlashib ketdi. Ey mening baxtiyor zamondoshim, kunlarimiz, umrimiz sen kabi zamon-doshlarim bilan goʻzal!

Saodat QURBONOVA,
Nishon tumanidagi
18-maktab oʻqituvchisi

Qalbmimdagi nur

Bir kuni shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf rahmatullohi alayhning huzurlariga bir odam kelib, “Hazrat, o’g’limga sizning ismingizni qo’ydim, sizga o’xshagan inson bo’lishini niyat qildim” deganida shayx hazratlari “O’g’lingiz menga o’xshashini istasangiz, otam kabi ota bo’ling” degan ekanlar. Insonlarning ta’lim-tarbiyasiga, jamiyat yuksalishiga hissa qo’shayotgan shaxslar bilan suhbatlashsangiz, ularning bu darajaga yetishishida otasi yoki onasi asosiy o’rin tutganiga guvoh bo’lasiz. Bugun “Qalbmimdagi nur” rukni orqali xalqimiz orasida zarbulmasal bo’lib ulguragan yuqoridagi iboraning asl qahramoni Muhammad Yusuf hoji dada haqida suhbatlashamiz.

Xalqimizning ardoqli farzandi, ulug’ olim, fazilatli shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf rahimahullohning singlisi Tojiniso aya padari buzrukvorlari haqidagi xotiralarini shunday boshladi:

– Avvalambor sizga ko’pdan-ko’p rahmat, qizim, bizni shuncha e’zozlab, qadrlab kelganingiz uchun!

Rahmatli otam haqida so’z boshlar ekansiz, shunday ko’z oldimda otam bilan birga onamning nurli yuzi, nazokat va hayoga to’la chehrasi, favqulodda qat’iyatli, mislsiz jur’atli siymosi jonlana boshladi. Quloqlarim ostida xoki-sorgina ovozlari eshitilgandek bo’ldi. Shariatimiz peshvolari tomonidan aytilgan o’rinli, juda muhim o’git bor: “Ota-onaning haqqiga baravar rioya qilish mumkin bo’lmay qolsa, ulug’lash va ehtirom ma’nosida ota ustun qo’yiladi, chunki nasab otadandir. Xizmat va in’om yuzasidan esa onaning haqqi ustun qo’yiladi. Misol uchun, ota-ona tashqaridan kirib kelsa, ota uchun o’rindan turiladi. Farzand hadya qilsa, onasidan boshlaydi. Farzand ota-onadan faqat bit-tasiga nafaqa berishga qodir bo’lsa, onasiga beradi”. Men buni ko’p eshitganman, siz ham ko’p o’qigandirsiz. Bu go’zal tavsiyaga binoan men ham suhbatimizni nur yuzligim, haqiqiy sabr sohibi, volidayi muhtaramam Sobiraxon Tilakberdi qizidan boshlayman. Bu xotiralarim volidayi mehribonimga, onajonimga o’ziga xos hadya bo’lib, qabrlari yana ham munavvar, oxirlatlari obod, ruhlari yana ham shod bo’lsin!

Onam Sobiraxon hoji aya juda taqvoli, nihoyatda mehnatsevar ayol edilar. Bolalik, yoshlik davrlari sho’ro tuzumiga, xalqimiz uchun eng og’ir pallalarga to’g’ri kelgani uchun onalari Hayitxon enam bilan kolxozda ishlab, hayot sinovlariga bardoshli bo’lib ulg’ayganlaridanmi, umrining oxiridagi shiddatli sinovlarga ham mardonavor turib berdi. Umri davomida qancha kuchli sinovlar bo’lmasin, hayotdan biror marta nolimadi, birovga qattiq gapirmadi, qo’l bilan ozor bermadi, birovni g’iybat qilmadi, halol mehnatdan qochmadilar. Hasad, gina-kudurat degan narsalar, hatto turli isitma, kasalliklar ham onamga mutlaqo begona edi. Doim bizga, nabiralarga “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Yo’lda odamlarga aziyat yetkazadigan o’simlikni kesib tashlagan odamning jannatda yurganini ko’rdim”, degan ekanlar” deb, shu hadisni ko’p aytar edilar, “Ko’rdinglarmi, chiroqlarim? Hech kimga til bilan ham, qo’l bilan ham ozor bermanglar” deb, hadis bahonasida chiroyli, o’rinli ta’lim-tarbiya berib o’tardilar.

Onam o’ziga xos ilm-ma’rifatli bo’lganlari uchun shayx Muhammad Sodik



Muhammad Yusufdek olim farzandni tarbiyalaganlar deb o’ylayman. Olimlarimiz “Sog’lom bola sog’lom onadan dunyoga keladi” deganlarida faqat tansihatlikni nazarda tutmagan, balki tana, ruh, imyon va e’tiqod salomatligini ham nazarda tutgan. Volidayi mehribonim, xalqimizning tili bilan aytganda, ana o’sha to’rt mu-chasi sog’lom ayol edi. Bizni go’dakligimizdan tahoratli holda ne’matlantirib, zikr aytib ulg’aytirganlar. Dadamiz ham, onamiz ham bizni senlab gapirmaganlar, biz tugul, nabiralari ham, umuman, ilm yo’lidagilarni, Ollohning Kitobidan bir harf o’qigan bo’lsada o’qiganlarni senlamay, ana shunday husni-xulq bilan yashab o’tdilar.

O’tgan kunlarni ko’z o’ngimizga keltirib, yaqindan tasavvur qilsak, onam “Islom dini afsona ekan”, “Ro’za tutsalaring, kasal bo’lasanlar” degan tashviqotlar o’tkazib turilgan eng og’ir davrlarda dadamga turmushga chiqqan. Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari deb, ilm o’rganish uchun bel bog’lagan dadamga suyanch bo’lib, turmushning past-balandiga, bor-yo’g’iga sabr qilganlar, dadam rahmatli “Mir Arab” madrasasida o’qish uchun uzoq yurtga ketganlarida bir qo’ra qo’y, qo’lida yosh go’dak Muhammad Sodik akam bilan ot ustida yurib, Oloy yaylovlarida cho’ponlik qilgan. Dadam ta’til vaqti paxsa devor urib, halol mehnat bilan topib kelgan maoshini tejab, bu ta’tildan keyingi ta’tilgacha yetkazganlar. Har yomg’irda hamma tarafidan chakka o’tib turadigan bir xonalik uyimizning tomini kuz, qish va bahor ichi yolg’iz o’zlari adirning tuprog’i bilan suvab turishlari ham onamning favqulodda qat’iyatli, jur’atli, sadoqatli jufti halol, mehribon ona ekanliklaridan darak beradi. Onamning mana shunday sharaflari, mashaqqatli, mas’uliyatli hayot yo’lini ko’z oldimga keltirsam, Islom dinini bashariyatga yetkazish yo’lida misli ko’rilmagan jasorat, fidokorlik namunalari ko’rsatgan Xadi-

BESHIKDAN

cha, Ummu Salama, Oisha, Zaynab, Hafsa roziyallohu anho kabi mo’mina onalarimiz, Ummu Umora Nusayba bint Ka’b Moziniya kabi sahobiya ayollarimizni onajonimning, mehribonimning timsolida ko’rgandek bo’laman.

Volidayi mehribonim haqiqiy Haq yo’lidagi ummat ayollaridan deb faxrlansam ham, u kishining siyrat va sifatlarini to’laligicha bayon qilishga ojizlik qilaman. Onam Sobiraxon Tilakberdi qizi davr taqozosi bilan faqatgina maktabda tahsil olgan bo’lsalar-da, lekin turmush o’rtog’ining oila maktabida eng taqvoli, erga itoatkor, pokiza, mehnatsevar, tejamkor, parhezkor, benazir tolib bo’lgan. Dadam rahmatli onamga bir chiziqlik chizib, shundan o’tmaslikni ta’kidlagan bo’lsalar onam bu chiziqdan o’n qadam berida yurganlar. Shuning uchun bo’lsa kerak, padari buzrukvorim umrining oxirigacha onamni xotirlab, onamdan roziliklarini takror-takror aytib yurdi. Onam vafot etganida dadam “Onamdan erta yetim qolgan bo’lsam ham, yetimlikni unchalik his qilmagan edim, lekin onangizdan ayrilganimdan keyin haqiqiy yetim qolganimni angladim” deganlar.

Men sizga aytsam, otam bilan onam hayotda nihoyatda chiroyli, o’rnakka loyiq yashadilar. Bir-biriga hech qachon qattiq gapirmasdilar, hatto yuzlarini bir-biridan ters o’girib o’tmasdilar. Hayotdagi biron muammo yoki qiyinchilik sabab o’zaro tortishganlarini ko’rmaganman. O’zaro munosabatlarida mulozamat, o’rinsiz xatti-harakat yo’q, doim samimiyat, ilm-ma’rifat balqib turardi.

Men uzoqroq joyga uzatilgan bo’lsam-da, Ollohning inoyati bilan oradan biroz vaqt o’tib, ota-onamga, shunday uyimiz derazasini ochsak, volidaynlarimning uyi, hovlisi ko’rinib turadigan, ota-onam dar-chasini ochsa, bizning hovlimizga o’tiladigan darajada yaqin qo’shni bo’lib qoldik. Bu ham hikmatsiz emas ekan, ota-onamga yoshligimdan boshlab, to ular oxirat olamiga ko’chib o’tguncha xizmat qildim. Ayniqsa ikki akam – Muhammad Sodik va Muhammad Amin akalarim hayotining shiddatli sinovlariga uchrab, o’zga yurtlarda, muhojirlikda yurgan kezlari ota-onamning yonlarida turdim, ularga qo’limdan kelganicha suyanch bo’ldim, olisdagi farzandlar sog’inchini yengillatish uchun mehribonlarimga baholi qudrat hamrohlik qildim.

Onajonim, mehribonim ana shunday sinovli kunlarda ham hayotini sabr, ibodat va nabiralari ta’lim-tarbiyasi bilan bezadi. Akamning bolalari dadasini sog’inib, xarxasha qiladigan yo biroz bezovta bo’ladigan bo’lsa, ularga “Birpas shoshmanglar-chi, ana, ammingiz kelyapti. Ammingiz bizga nimalar olib kelyapti ekan-a? Biram o’ng ko’zim uch-yapti. Inshoolloh, ammingiz xushxabarlar, ko’p sovg’a-salomlar bilan kelyapti” deb, ularni men bilan ovuntiradigan, matonatda, yaxshilikka yo’yishda jiyanlarimga o’rnak bo’ladigan bo’ldilar. Onamdagi mana shunday yaxshilikka yo’yish fazilati Muhammad Sodik akamda ham bor edi.

Onam shirin kulchani yaxshi ko’rar edi. Xo’jayinim bilan bozor-o’charga chiqadigan bo’lsak, u kishi ataylab onam yaxshi ko’radigan ne’matlarni olardilar, uyga qaytayotganimizda ularni qo’limga tutib,

avval ota-onamning huzuriga kirishimni tayinlab, “Bularni siz uchun oldik demasdan, onajon, siz yaxshi ko’rganingiz uchun bulardan sizga ham olib chiqdim deb ayting. “Siz uchun oldik” deb, minnat qilib qo’yishdan ehtiyot bo’ling!” deb aytar edilar. Olloh u kishidan rozi bo’lsin, yo’limga intiq turgan ota-onamning oldilariga tez-tez yuborardi, ularga xizmat qilishimdan quvonar edi.

Onajonim umrining so’ngiga qadar “Siz o’tirgan o’rin, siz yurgan yo’l doim ta’lim-tarbiyadan darak berib tursin. Biron yig’in yo to’y-tomoshaga borsangiz, hech kimga, hech narsaga ozor yetkaz-mang, aksincha, bemorga dalda, miskinlarga suyanch bo’ling. Xatokorlarga duch kelib qolsangiz, kechiruvchi, ayblarni bekituvchi bo’ling” der edi va Buxoriy bobomiz haqidagi quyidagi voqeani ko’p hikoya qilib berar edi. Imom Buxoriy hazratlarining ilm halqasidagi toliblardan biri “Bir kuni imom Buxoriy rahmatullohi alayhning ilm majlislarida o’tirgan edik. Masjiddagi bir kishi soqoliga yopishgan bir xasni olib, oyog’ining ostiga tashladi. Qarasam, Buxoriy bir xasga, bir odamlarga qarab qo’yidilar. Odamlar xasga e’tibor berishmadi. Shunda u zot qo’lini cho’zib, xasni yerdan oldilar-da, yenglarining ichiga soldilar. Masjiddan chiqqanimizda u zot xasni bir chetga tashlaganlarini ko’rdim”.

Demak, bir odam soqoliga ravo ko’rmagan xasni u zot Ollohning baytiga, masjidga ravo ko’rmadilar. Onam takror-takror aytadigan bu hikoyani xotirlar ekanman, ota-onaning ilm-ma’rifat, taqvo ahlidan bo’lishi farzandlar uchun naqadar saodat, nur ustiga nur, jannatga yetaklovchi yo’l ekanini ham aql bilan, ham qalban idrok etaman.

Onam ham, dadam ham oilada barchamizga har sohada o’rnak edilar. Ayniqsa, dadam tungi namozlarda bardavom edilar.

Dadam Muhammad Yusuf Boybo’ta o’g’li milodiy 1928-yili Andijon viloyatining Qoraqo’rg’on qishlog’ida, Boybo’ta cho’pon Qo’shbo’ta o’g’li oilasida dunyoga kelgan. Dadamning otalari, ota avlodi cho’ponlik, bog’dorchilik qilishgan. Dadam yoshligidan ilm o’rganishga, ayniqsa Ollohning kalomini, shariat va tariqat ilmlarini o’rganishga qattiq qiziqqan. 5 yoshida onasidan yetim qolib, tirikchilik uchun hayotning og’ir mashaqqatlarini chekkan, otasining yonida cho’ponlik qilib kun kechirgan. Boshlang’ich diniy ta’limni tog’alari mulla Parpidan jiddu jahd bilan o’rgangan. Ilmga rag’bat, bu yo’ldagi qat’iyat dadamni Buxorodagi “Mir Arab” madrasasiga yetaklab kelgan. U yerdan keyin Toshkentdagi Baroqxon madrasasida yetuk ulamolardan dars olganlar.

Dadam rahmatli shariat ilmlarida yetuk olim, chinakam obid, o’ta hayoli, ma’rifatli, ziyoli inson edi. Padari buzrukvorimning bolalikdan to umrining so’ngiga qadar o’tgan hayotini sizga batafsil yoritib, xotiralarim tugamaydi, lekin vaqtimiz yetmasligi mumkin. Shuning uchun sizga, barcha ixlosli azizlarimizga Muhammad Amin akam yozgan “Islomga bag’ishlangan umr” kitobini o’qishni tavsiya qilib qolaman. Hozir esa dadam haqida hali ko’pchilik eshitmagan, sahifalarga



QABRGACHA MADRASA BO'LDILAR

tushishga ulgurmagan voqealardan bir shingil, u kishining ta'lim-tarbiyalari, xulqlari, sunnatga muvofiq hayotlaridan hikoya qilib beraman.

Men yosh qizchaligimdan dadamning vafotlariga qadar u kishining xizmatlarida bo'lganim uchun ko'p fazilatlariga guvoh bo'lganman. Dadam kunduzlari xalq xizmatida qoyim edilar. Padari buzrukvorimni uzoqdan taniganlar ham, yaqindan taniganlar ham "Muhammad Yusuf hoji dada saodat asri odami bo'lib yashaganlar" deb e'tirof etadi. Darhaqiqat, qiblagohim Rasulimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga qadamba-qadam ergashgan benazir sahobalar kabi edilar. Katta yo kichik dadamga biron yumush buyursa, yuksak tavozu bilan qo'llarini ko'ksiga qo'yib, "Xo'p bo'ladi. Jonim bilan, inshoolloh" deb, birdan shu ishga kirishar edi. Go'zal odob-axloqlari tufayli dadam Bulqoboshidagi masjidda qirq besh yil imomlik qildilar. Doim xalq xizmatida, din g'amida yurdilar, xalqqa xizmat qilishni o'zlaridan ham, oilalaridan ham ustun qo'ydilar. Yordam, nasihat so'rab masjidga kelganlar bilan cheklanib qolmay, uzoq-yaqin, qo'ni-qo'shni, qavm-qarindosh, do'st-birodarlarning oilaviy hayotidan, yaxshi-yomonidan, hol-ahvolidan xabardor yurar edilar. Nihojatda saxiy, olijanob, himmati baland inson edi, ilm yo'lidagi talabalarga egnidagi ko'ylagini ham hadya qilib yuborardi. Bugungidek esimda, bir kuni masjid-dan boshiga quruq chorsining o'zini salla qilib o'rab keldilar. "Subhanolloh, dada, do'ppingiz biron joyda qolib ketibdimi?" desam, "Bir kishi so'ragandi, hadya qildim", dedilar.

Qiblagohim bir hadisni ko'p aytar edilar: "Bir ayol Nabiy sollallohu alayhi vasallamga bir mato olib keladi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunga muhtoj bo'lganlari uchun uni oladilar. Keyin sahobalarning oldiga o'sha matoni izor qilib kiyib chiqadilar. Bir kishi buni ko'rib, "Muncha chiroyli, uni menga bering", deydi. Odamlar: "Yaxshi ish qilmading, Nabiy sollallohu alayhi vasallam unga muhtoj bo'lganlari uchun kiygan edilar. Sen esa u zot yo'q demasliklarini bila turib so'radim", deyishadi. Sahoba esa: "Men uni kiyish uchun emas, kafanlik qilish uchun so'radim", deydi. Rostdan ham uning kafani o'sha mato bo'ldi".

Dadam ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan o'n besh asr keyin yashagan bo'lsalar-da, Payg'ambarimizga izma-iz ergashganlardan edilar.

Qiblagohim yana bir kuni menga "Tojiniso qizim, tez uydan bir to'shak olib chiqing. Qo'shni tumanga marosimga borishim kerak ekan, marosim egalari motorollerda kelishibdi, shunga to'shakni tagimga solib olaman", dedilar. "Voy, dada, sizni olib ketgani motorollerda kelishibdimi?" dedim, "Qizim, meni olib ketgani piyoda kelishsa, piyoda ham bo'raverardim" degan. Muborak siyrat kitoblarida ko'p o'qiganmiz, Nabiyimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamni Madinaning oddiy bir yosh bolasi qo'lidan tutib hojatini bitirib berish uchun yetaklasa, janobimiz sollallohu alayhi vasallam u bolaga ergashib ketaverar ekanlar. Ollohim Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan u zoti barokatga ergashganlardan,

xususan mening dadamdan rozi bo'lsin.

Dadam ham, onam ham biron marotaba biron yerda yoki to'y-marosimlarda "Biz muftiyning yoki shayxning ota-onasimiz" deb kibrlanganlarini ko'rmaganman, eshitmaganman.

Dadam ulug'larimizning "Ko'pchilik xizmat qilayotgan odam ulug' emas, o'zi ko'pchilikning xizmatida bo'layotgan odam ulug'dir" degan hikmatiga binoan hayot-mamotini dinga, musulmonlarga bag'ishlagan edilar. Robbim u kishining salomatliklarini ham ziyoda qilib qo'ygan ekan. Juda ko'p kitob o'qishlariga, kechalari yuz rakat tahajjud namozlarini o'qishlariga qaramay, umrlarining oxirigacha ham ko'zlariga ko'zoynak taqmadilar, hassaga suyanmadilar.

Dadam xalqqa, dinga shuncha xizmat qilsalar ham, biz uchun, nabiralari uchun ham alohida vaqt topib, ta'lim-tarbiyada qoyim bo'ldi. O'zlari imom, olim bo'lsalar ham, bizga o'rnak bo'lib, talabadek ilm o'rganar, kitoblari o'qir edi. So'ng o'rganganlarini bizga dars qilib o'tardi, vazifalar berib, uni bajarishimizni qattiq nazorat qilardi. Dadajonim bizning ham, nabiralarning ham o'qishimizni, yurish-turishimizni kuzatib borardilar, orqamizdan maktabga borib, xabar olardi, o'qituvchilardan biz haqimizda doim so'rab turar edi. Vazifani a'lo darajada bajargan nabiralari yaxshi mukofotlar bilan rag'batlantirib, sovg'alar, hadyalar berardi, hadya berishni avval qiz nabiralari boshlar edi. Ota-onam barcha farzandlari

miz uchun eng yaxshi ustoz, qo'shimcha dars qilishlari va ilmlar o'rganishida hozirgi kunning tilida beminnat "repetitor" bo'ldilar. Ota-onalar farzandini maktabdagi darsga, qo'shimcha bilimlar olishga qiziqtira olmay, joni halak yurganini ko'rsam hozir ham ota-onam bilan faxrlanib, ulardan xursand bo'lib ketaman.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam nabiralari, sahobalarining farzandlarini tizzalariga o'tirg'izib "Bular mening rayhonlarim" deganlari, ularni suyganlari, shu yo'l bilan chiroyli ta'lim berganlari kabi, mening ota-onam ham biz farzandlariga, bizdan ortib, nabiralari, qo'shni, qavm-qarindoshlarning bolalariga doim bag'rikeng bo'ldilar, ular uchun ta'lim-tarbiyada, mehr-muhabbatda, silayi rahmda bebaho dargoh vazifasini o'tadilar.

Mana, qiblagohim va validamning vafotlariga necha yillar bo'lgan bo'lsa-da, haligacha Bulqoboshidan tortib qo'shni viloyat, yurtdagilar "Odamlar ila samimiy munosabatda bo'lishni, bilimaganlarini sabr bilan o'rgatishni hoji ayamdan o'rganganman" desalar, boshqalari esa Hoji dadam bizga oilada farzandlar ta'lim-tarbiyasida juda ko'p tavsiyalarni bergan edilar" deya ota-onamni go'zal xotira, kuchli sog'inch bilan eslashadi.

Padari buzrukvorim umrlarining oxirida menga qilgan nasihatlarini butun umrimga yetarli saboq bo'lib kelyapti. Dadamning vafotidan biroz oldinroq Baytullohni

ziyosat qilish baxti nasib bo'lib qoldi. Haj mavsumi tugab, yurtimizga qaytishim bilan ona Vatanimiz ostonasiga qadam qo'yar ekanman, meni birinchi bo'lib dadam qarshi oldilar. Ko'zlarimga yosh keldi. Shunday ulug' yoshdagi tabarruk, men uchun dunyolarga tengsiz insonning ziyoratiga men borishimning o'rniga, dadamning meni kutib olishga kelganlaridan ham sevindim, ham yurak-bag'rim ezilib ketdi. "Dada, shu yoshda sizni ko'rgan men borishim kerak-ku, o'zingizni urintirib, meni kutib olgani keldingizmi?" desam, "Qizim, sizning huzuringizga ovoralikdan kelmading, xavotir olib keldim. "Hajga borib, hoji ona bo'ldim" deb, yurt tuprog'ini kibr bilan bosmang, deb keldim. Oldingizga chiqqanlarga yuqoridan boqmang, deb keldim. Ziyoratingizga kelganlarga ilgari kavush kiyib xizmat qilgan bo'lsangiz, endi yalangoyoq yelib-yugurib xizmat qiling deb keldim..." degan edilar mening ulug' Tarbiyachim!

Quchoqlaridan doim rayhonlar to'kilgan volidaynlarim beshikdan qabrgacha barchamizga mana shunday ulkan madrasa bo'ldilar. Olloh subhanahu taolo ota-onamning borgan manzillarini jannati na'implardan qilib, darchalarini Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallamning muborak bog'chalariga tutashtirsin. Oxirat diyorida u zoti bobarakotning saflarida, avliyolar, anbiyolar qatorida Robbul Olamiynning rahmatiga, marhamatiga chulq'anib yashasinlar, omin!

Sharofat HAZRATZODA

Muhtaram o'quvchim, maqolani shu joyda, bir benazir otaning qizidan, dunyo e'tirof etib, ulug'layotgan bir olimning singlisidan eshitgan xotiralarim bilan tugallasam ham bo'lar edi. Aslida gazetaning, aynan bu ruknning talabi ham shu. Lekin ko'nglimdan o'tgan ba'zi o'y-xayollar kabi o'ylar sizning ham xayolingizdan o'tishi mumkinligini mulohaza qilib, suhbat so'ngida quyidagilarni yozishni ma'qul topdim.

Maqolani o'qib, "Endi hamma farzand ham ota-onasini ulug'lashi farzda, ko'klarga ko'tarib maqtashi qarzd", "Qalam ahli yozaveradida" deyishimiz mumkin. Ammo siz beshikdan qabrgacha madrasa bo'lgan bu ulug' zotlar haqida mendan boshqa tanish, notanish insonlar bilan ham suhbatlashsangiz, men ta'riflab bera olmagan e'tiroflarga duch kelishingiz aniq. Bu suhbatni o'tkazib kelib, aynan Muhammad Yusuf hoji dada, Sobiraxon aya haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plash uchun, garchi shayx Muhammad Sodiqli Muhammad Yusuf rahimahulloh siyratlarini yoritgan bo'lsa-da, "Islomga bag'ishlangan umr" kitobiga va shu nomli hujjatli filmga, "Muhammadga sodiq Muhammad Sodiqli" xotiralar kundaligiga, Youtube sahifasidagi "Hazratni xotirlab" va "Faxriniso" turkum ko'rsatuvlariga takror murojaat qildim. Men bu manbalarda hazratning ota-onalari haqida ilgari u qadar diqqat qilmagan betakror e'tirof, bitiklarga duch keldimki, inson beixtiyor hayratga tushadi. Menga o'zgacha ta'sir qilgan bu e'tiroflar aynan Muhammad Yusuf hoji dada, Sobiraxon aya haqidagi farzandlar ta'rif-tasnifidan tashqari yetuk, taniqli olim-u ulamolarning, ayniqsa kelin-kuyovlarining e'tiroflari bo'ldi. Beshikdan qabrgacha madrasa bo'lgan Muhammad Yusuf hoji dada, Sobiraxon aya haqida bildirilgan barcha ezgu fikrlar samimiy ekanini shu millat farzandi sifatida yana bir bor e'tirof etib, mana shunday ota-onalardangina shayx Muhammad Sodiqli Muhammad Yusufdek olimlar, Tojiniso ayadek hayoli, jasoratli, hech kimga o'zini ko'rsatmasdan Ollohnin diniga xizmat qilayotgan qizlar tug'ilishiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Bunday qat'iyat bilan gapirishimning sababi shuki, bu suhbatga Tojiniso ayani ko'ndirishim ancha qiyin bo'ldi, shuning uchun ko'nglimdan g'illi-g'ashli turli o'y-xayollar ham o'tdi. Lekin suhbat uchun Tojiniso ayaning eshigini qoqishim bilan, garchi aya yoshlari ulug', hozir betob bo'lishlariga qaramay, kelinidan oldin qo'llari ko'ksida qarshimga tavozu bilan chiqqanini ko'rib, o'zimdan ham, bema'ni

o'y-kechinmalarimdan ham uyalib ketdim. Ustoz hazrat rahimahulloh kabi qaddi-basti tik, salobatli, hatto nigohlari ham hazratni eslatib turadigan bu ayoldagi kamtarlik, o'zini namoyish etmaslik, juda tanqis odob-axloqni ko'rib, ayaga hurmatim, ixlosim yanada ortdi. Shu hollarining o'zidan bir olam dars oldim. Dunyoning yarmiga hukmronlik qilib turgan xalifa Umar ibn Abdulaziz rahmatullohi alayhi "Olloh taoloning diniga jim turib da'vat qilinglar" deganlarida odamlar "Qanday qilib jim turib da'vat qilish mumkin?" deb so'rashadi, shunda u zot "Go'zal odob-axloq bilan" degan ekanlar.

Ota-onaning yuziga nazar solish ham ibodat, ibodat bo'lganda ham, eng yuksak ibodat! Endi tasavvur qiling, ota-ona, aka-uka, opa-singil, hatto jiyanlarga qosh qayirmasdan, qovoq solmasdan xizmat qilish, shu yo'lda o'z rohat-farog'atidan kechish uchun inson shunchaki odam bo'lmaydi-da, tasavvurimizga sig'dirishimiz qiyin, o'ta oliyanob sifat, sifatlar bo'lganda ham hayratingizni oshiradigan, ham ulug'vorlik, ham kamtarlik, ham soddadillik, ham shijoatni o'zida mujassam qilgan fazilatlar bilan ziynatlangan inson bo'ladi.

Aya bugun bizda topilishi qiyin bo'lgan juda ko'plab xislatlar sohibasi bo'lish bilan birga volidalariga o'xshab, favqulodda jasoratli, otalaridek ko'pchilikning xizmatiga bel bog'lagan, shijoatli, mehnatsevar ayol ekanlar. Tojiniso aya o'zlari haqida ko'p yozmasligimni takror-takror tayinlagan bo'lsalar-da, u kishining ota-onasiga, din yo'lidagi yaqinlariga qilgan va qilayotgan xizmatlari bir asar yozishga, yozilganda ham jild-jild kitob bo'lishga loyiq ekan.

Aya Ollohnin roziligi yo'lida shariat ilmlarini xalqimizga yetkazaman deb, umrini shu ishga tikkan, bu yo'lda tuhmat-bo'htonlarga uchrab, tazyiqlardan qochib, muhojirlikka ketgan ikki akasining boshidan kechgan og'ir kunlarini yodga olib suhbat mobaynida bir xotirani o'zim uchun ma'lumot o'rnida bilib qo'yishimni ta'kidlab aytdilar. Bu voqeani eshitar ekanman, millatimiz ayol-qizlari orasida hamon mana shunday "yuragida arslon qishlaydigan" qizlar, opa-singillar, onalar, jufti halollar borligi bilan faxrlanib ketdim. Aya rozi bo'lsalar, qalbmimga o'zgacha ta'sir qilgan bu xotirani ham qog'ozga tushirib, o'rnak sifatida xalqimizga taqdim qilishni niyat qilib, uyga qaytdim.

HAZRATZODA

2023-yil 5-dekabr

Fanimiz fidoyilari

Tilshunoslikdagi faoliyatimni ustoz olim, professor Nizomiddin Mahmudovsiz tasavvur qila olmayman. Ustoz nomzodlik dissertatsiyamga opponentlik, doktorlik dissertatsiyam himoyasiga esa raislik qilgan. Nizomiddin Mahmudov haqidagi boshqa bir ustozimizning quyidagi fikrlari har doim meni ibrat olishga chorlaydi: “Hech qanday baqiriq-chaqiriqlarsiz, ayyuhannos solmasdan, o‘zidan oldingi tilshunoslar qoldirgan ilmiy merosga hurmat bilan yondashgan holda, o‘zbek tilining boshqa sistemadagi tillardan farq qiladigan o‘ziga xos ichki tomonlarini ishonarli dalillar asosida yoritib berishda havas qilishga arzigulik katta muvaffaqiyatlarga erishdi va haqli ravishda o‘zbek tilshunosligining ustuniga aylandi” (A.Nurmonov).

O‘zbek tilshunosligi Ayyub G‘ulomov ta’limotidan keyingi, to‘la ma’nodagi nazariy bosqichida tildan amaliy foydalanish, uning ijtimoiy vazifalari samaradorligini oshirish, milliy-madaniy kodlarini aniqlash, tilni algoritmash, modellashtirish, axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan umumiy lisoniy imkoniyatlarni ochishdek yangi ijtimoiy buyurtmani olgan edi. Bu bosqichda o‘zbek tilshunosligi tildagi lison va nutqni izchil farqlash, undagi barqaror umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sababni muvaqqat alohidalik (xususiylik), hodisa, voqelik, oqibatlardan ajratish, lisoniy struktura va lisoniy birliklarni, ularning imkoniyatlarini aniqlash borasida izchil tadqiqotlar olib borib, tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarini dialektik tadqiq metodikasi asosida tekshirdi. Ayyub G‘ulomov ilmiy maktabi yangi asr bo‘zag‘asida til imkoniyatlarining nutqiy voqelanishini tekshiruvchi o‘zbek sistem-struktur tilshunosligi yuksak maqomini oldi. Buning uchun tarixiy davr tilshunoslarining yangi avlodini sahnaga chiqardi. Hamid Ne‘matov, Abduhamid Nurmonov va Nizomiddin Mahmudov ana shu tarixiy shaxslar sifatida fanga kirib keldi va o‘zbek milliy tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqdilar. O‘zbek tilshunosligi o‘zining bugungi taraqqiyot darajasi uchun ulardan chin ma’noda qarz-dordir.

Sermahsul olim o‘zbek tilshunosligining, asosan, grammatika, leksikologiya, leksikografiya, sotsiolingvistik, ortologiya kabi yo‘nalishlari bo‘yicha qator tadqiqotlar yaratgan, ona tili bo‘yicha darsliklar e‘lon qilgan. Zabardast shogirdlar tayyorlagan. U 80 ga yaqin darslik va qo‘llanma, monografiya va risola, 400 ga yaqin ilmiy-ma‘rifiy maqola muallifi. Ayniqsa, tilshunosning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”(1995), “O‘zimiz va so‘zimiz”(1997), “Ma‘rifat manzillari”, “So‘z estetikasi”(1981), “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya” (1984), “Gapda forma va mazmun”(1984), “O‘zbek tilida ish yuritish”(bir necha nashr), “O‘zbek tilini o‘rganamiz”, “Rasmiy lug‘at” (1991), “Til va madaniyat” (1992), “O‘zbek tilining mazmuniy sintaktikasi” (1992), “Turkcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-turkcha lug‘at” (Toshkent, 1993, Anqara, 1998), “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis”(1995), “Til”(1998), “Ma‘rifat manzaralari”(1999), “Komillik kaliti. Ma‘naviyatdan o‘zbekcha-ruscha-ingilizcha lug‘at”(1999, 2006), “O‘qituvchi nutqi madaniyati” (2009), “Tilimizning tilla sandig‘i”(2011) kabi ishlari originalligi, mantiqiyli va amaliy ahamiyati bilan fanimiz xazinasini to‘ldirgan ulug‘vor ishlardir. Ustozning har bir jumlasini bee‘tibor o‘qiy olmaymiz.

O‘zbek tilshunosligida mazmuniy grammatika yo‘nalishning yetakchisi bo‘lgan N.Mahmudovning sotsiolingvistik sohasida xam barakali ijod qilib kelayotganligini alohida e‘tirof etmoq lozim: “Shubhasiz, tilning paydo bo‘lishi,

o‘zlashtirilishi va taraqqiyotidagi murakkab jarayonlarni jamiyatdan ajratgan holda aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu murakkab jarayonda ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining, uy-xonadon degan birlikning hal qiluvchi omil ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli hazm qilib ulgurguncha, ne-ne nasllar yugurik asrlar to‘zoni ichra abadga qo‘nim topgan. Eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shu haqiqatni izlab, turli-tuman tajribalar o‘tkazilgan”. Bu tajribalarni batafsil o‘rgangan olim til va jamiyat muammosi bilan bog‘liq qator tadqiqotlarini yaratdi.

Professor Mahmudov o‘zbek filologiyasida lingvistik publitsistika deb nomlash mumkin bo‘lgan alohida yo‘nalishni vujudga keltirdi. U bayonlarda murakkab va hissiz, faqat mutaxassislar uchun mo‘ljallangan ilmiy ifodalardan chekinib, sodda, shirali, jozibador oraliq bir uslubni shakllantirdi. Bu borada olimni men o‘zimga to‘la ma’noda ustoz deya olaman. U millat va hayot ko‘zgusi bo‘lgan ona tilimiz sofligi, o‘ziga xosligi, tilimiz tabiatiga xos imkoniyatlarining, tilimiz boyligining namoyon bo‘lishi uchun as-toydlil xizmat qilayotgan tilshunos hamdir. Bu borada olimning “O‘qituvchi nutqi madaniyati” darsligi alohida e‘tiborga molik. Undagi go‘zal ifoda va quyma misollar kishini o‘ziga rom etmay qo‘ymaydi. Nutq madaniyati muammolari haqida gap ketganda, har doim ustozning qarashlari va go‘zal misollari menga ko‘makchi bo‘lib keladi. Hatto ularning ayrimlari to‘liq bir dissertatsiya mavzusi uchun asos bo‘lgan. Men bu yerda bir tadqiqotchi-mizning “O‘zbek tili yozma matnlarining lingvomantiqiy ekspertizasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi haqida gapiryaman. Tadqiqotchi bu mavzu ustida ishlash uchun bir o‘quv yili davomida “Mantiq” fanidan dars berdi. Muammoni belgilash va tadqiqotni bajarishda ustozning qarashlari metodologik xarakter kasb etayotir.

Ustozning tilimiz boyligi, qadratini madh etuvchi qator asarlari bor. Masalan, uning “Til” asarini men lingvistik poeziya degan bo‘lardim. Olimning bunga doir fikrlarini o‘qiymiz: “Yaqin o‘tmishimizda ona so‘z, demakki, millat, xalq qaddini bukish yo‘lida qilingan urinishlar istiqlool sharofati bilan tarix qa‘riga kirib bo‘ldi. O‘zimiz ham ozod bo‘ldik, so‘zimiz ham ozod bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida munavvar va muhtasham manzil sari o‘z yo‘lida shitob bilan bormoqda, o‘zbek tili ana shunday davlatning mustaqil tili sifatida kamol topmoqda”.

Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tili tadqiqotlarini lison – nutq dixotomiyasi asosida olib borishga, buning uchun tilshunoslikni har qanday taraqqiy etgan fanda

bo‘lgani kabi falsafa va dialektik mantiq kategoriyalari bilan integratsiya qilishda o‘zga xos qarashlarga ega. Ma‘lumki, analiz va sintez – tilshunoslikning asosiy, tayanch metodlari. Odatda, o‘zaro uzviy bog‘liq, bir-birini shartlovchi bu metodlardan biri har bir fanning muayyan davrida nisbatan yetakchilik qiladi. XX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan o‘zbek tilshunosligida analiz metodi ustuvor edi. Bu davrda o‘zbek tili tizimi (butunlik sifatida) qismlarga, qismlar yana kichik qismlarga ajratilib, ikkilik ziddiyatlariga qo‘yilib, tashkil etuvchi birliklar, kategoriyalar, mikrosistemalar aniqlandi va ularga formal mantiq metodologiyasi asosida tavsif

lar berildi. An‘anaviy tilshunosligimiz shu yo‘sinda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan edi. 80-yillardan boshlab tilshunosligimizda sintez metodi yetakchiligi, avvalgi davrda ajratilgan qismlarni butunga birlashtirish, tashkil etuvchilarning o‘zaro munosabati, strukturaning funksiyalarini aniqlash, semantik-grammatik maydonlar muammolari yoki sintez metodiga asoslangan sistemaviy tilshunoslik masalalari shakllana boshladi. Buni o‘z vaqtida ilg‘agan Nizomiddin Mahmudov zamon-doshi bo‘lgan ilg‘or fikrli tilshunoslar bilan sistem-struktur tilshunoslikning g‘oya va tushunchalari, metodologiya va metodlarini targ‘ib qila boshladi. Ammo olim har doim bu borada taqlidchilik va havoyi balandparvozlikka qarshi bo‘lib keldi. Bu fanda ilmiy fetishizmning ildiz otib ketmasligiga sabab bo‘ldi. Bunga ustozning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” (“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali) maqolasini o‘qib amin bo‘lishingiz mumkin.

Nizomiddin Mahmudov o‘z maslakdosh va shogirdlari bilan o‘zbek tili gap mazmunini sistema sifatida o‘rganish yo‘nalishini shakllantirdi. Bu yo‘nalishning mohiyati shundaki, unda til birligining ichki mohiyati, mazmuni, tashkil etuvchilariga katta ahamiyat beriladi, har bir mikroelementning xususiyatlari o‘rganilib, uning o‘z butunligi (til birligi) faoliyatida tutgan o‘rni, hissasi, imkoniyatlari kabilar aniqlanadi. Mazmuniy sintaksis oqimining tadqiq obyekti til birligidagi imkoniyatning voqelikka, lisondan nutqqa yo‘nalishi masalalaridir. Shu bois ushbu oqimda qolip (model), formula, invariant tushunchalari yetakchilik qiladi hamda logik, psixolingvistik, kognitiv, ekstralingvistik omillar bilan ish ko‘riladi. Professor Nizomiddin Mahmudovning ko‘rsatishicha, o‘zbek tilshunosligida bundan keyin bajariladigan tadqiqotlarining taraqqiyoti tilshunoslarning zamonaviy gnoseologiya, dialektik mantiq, tabiiy fanlarning metodologik asoslarini bilish va ularni til tadqiqotlariga tatbiq eta olish darajasiga ham bog‘liq. Bunda ham ustozning qimmatli o‘gitlari bor: xususiy fan va metodologiya tarozining ikki pallasi o‘laroq muvozanatda bo‘lmog‘i lozim.

Professor Nizomiddin Mahmudov ona tili ta’limining tom ma’nodagi jonkuyari hamdir. U mustaqillik bo‘zag‘asida Respublika ta’lim markazining yetakchi mutaxassisi maqomida “O‘qituvchilar gazetasi” (hozirgi “Ma‘rifat”)da ona tili ta’limi mazmuni, maqsadi, usuli va vositalarini o‘zgartirishga oid bahs-munozaralarda faol ishtirok etdi. Natijada ona tili ta’limiga respublika o‘qituvchilarining nuqtayi nazarlarini ifodalovchi yangi muqobil das-



turlar yaratildi va u tuman, shahar, viloyat, respublika bosqichida muhokama etildi hamda bunga katta ishonch bildirildi.

Shuningdek, dolzarb ilmiy-metodik muammolarni izchil hal etib borish uchun “O‘zbek tili” doimiy anjumani ta’sis etildi va ushbu har ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan anjumanga professor Nizomiddin Mahmudov o‘n yildan ortiq raislik qildi. Natijada maqsadga muvofiq ta’lim standartlari (DTS), darsliklarning yangi avlodi vujudga keldi. Nizomiddin Mahmudov g‘oyasi amalga oshib, ta’lim deduksiya va induksiya muvozanati ta’minlandi.

Nizomiddin Mahmudov yetakchiligidagi yaratilgan maktab darsliklari va qo‘llanmalar yangiligi, mantiqiyli, yuksak didaktik ko‘rsatmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Muallifning o‘z maslakdoshlari bilan yaratgan oliy talim darsliklari hozirgi lingvistikaning so‘nggi yutuqlarini aks ettirganligi, bo‘lg‘usi ona tili o‘qituvchilarining falsafiy-mantiqiy mushohadalarini ham oshirishga qaratilganligi bilan qimmatli.

Keyingi yillarda olim yangi tipdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni tayyorlash ishlariga bosh bo‘lib kelmoqda. Lug‘atning har bir keyingi nashri muttasil takomillashib borayotir. Yangi kiritilgan so‘zlar, terminlar, yangilangan va isloh qilingan izohlar tahsinga loyiq. Ustoz lug‘atni takomillashtirishga doir tadqiqotlarga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ladi. Rahbarligimda bajarilgan tadqiqotchi E‘zoza Sobirovaning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da huquqiy terminlarning berilishi” mavzusidagi dissertatsiyasi himoyasida qarshi fikrdagi ayrim olimlarning e‘tirozlariga nisbatan bildirgan fikrlari biz uchun qimmatli metodologik ahamiyatga ega: “Mavzu to‘g‘ri tanlangan. Bu tipdagi dissertatsiyalarda, masalan, boshqa fan sohalariga oid terminlar ham xuddi shu tarzda tadqiq qilinishi kerak. Bunga o‘xshagan ishlar faqat lug‘atning yana ham boyishiga, yana ham takomillashishiga va muayyan noqisliklar bo‘lsa, bartaraf qilishga imkon beradigan ham nazariy, ham amaliy ish sifatida diqqatga molik”. Bag‘rikeng ustozning bu fikrlari biz shogirdlariga qanot bermoqda.


Bir narsani alohida uqtirmoqchiman. O‘tgan asrda o‘zbek tilshunosligi fani ko‘p hollarda fanga begona ayrim “tilshunoslar”ning xizmatlari o‘laroq ayirmachilik kayfiyatida faoliyat ko‘rsatdi. Ammo men tilshunoslikning bugungi iqlimidan juda ham mamnunman. Bunda fanimiz donishmand darg‘alarining roli katta va ulardan behad minnatdor bo‘lishimiz kerak. Bu borada Nizomiddin Mahmudov kabi ulug‘ ustozlarimiz oldida hamisha qarz-dormiz. Qarzdorlik hissi esa zimmamizga ulkan mas‘uliyat yuklaydi. Buni unutmasligimiz kerak.

Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Xotira

ZAKOVATDA TENGSIZ OLIM

Akademik Shavkat Vohidovni bilmagan, tanimagan yurtdoshlarimiz kam bo'lsa kerak. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Sh.Vohidov ko'p yillar "Koinot" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining bosh direktori bo'lib ishlagan edi.



Shavkat Vohidov 1932-yil 11-oktabrda ziyolilar oilasida tug'ilgan. Otasi Ahad Vohidov 1925–1928-yillarda Bokuda birinchilardan bo'lib oliy ma'lumot olgan yurtdoshimiz. U kimyo va biologiya fanlari bo'yicha mutaxassis bo'lsa-da, o'zbek, turk, fors va tojik adabiyoti tarixini yaxshi bilardi. Bu bejiz emas, chunki ularning bobosi Abdukarim Sipandi Samarqandiy Ulug'bek madrasasi mudarrislaridan biri bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijod qilib o'zbek, turk, fors va tojik adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan. Yana bir bobosi Mulla Muhammad – Domlo Miri Zarrinkalom xattot go'zal husnixat sohibi bo'lgan. Shu bois ham Vohidovlar xonadonida davrning yetuk ziyolilari – Tamhid Samarqandiy, Vadud Mahmud, Vohid Abdulla, Sharif Akram, Ismoil Akram va boshqa ijodkor so'z namoyandalari yig'ilib, turli mavzularda dilga to'la suhbatlar o'tkazishgan. Yosh Shavkat bu uchrashuvlardan zavqlanardi.

Shavkat Vohidov Samarqand shahridagi 22-maktabda ta'lim oladi. Uning bolaligi, o'quvchilik yillari Ikkinchi jahon urushining og'ir davriga to'g'ri keladi. O'sha davrning og'ir sharoiti, turmushning moddiy qiyinchiliklari uni og'ir ishlarni ham qilishga majbur etgan. 1950-yili maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach O'zbekiston davlat universiteti(hozirgi Samarqand davlat universiteti)ning fizika-matematika fakultetiga o'qishga kiradi. Ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqishi yuqori bo'lgani sababli o'qishni tamomlagach, "Optika" kafedrasiga assistent lavozimiga ishga qabul qilindi. Bir yildan keyin Sh.Vohidov O'zbekiston Fizika-matematika institutining aspiranturasiga o'qishga yuborildi.

Olimning ilmiy faoliyati boshlanishi O'zbekistonda radiatsiya va yadro fizikasi bir qancha ilmiy yo'nalishlarda qo'llanilgan davrga to'g'ri keldi. Shavkat Vohidov radiatsiya fizikasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarda faol ishtirok etdi va bu sa'y-harakatlar yosh tadqiqotchiga yana bir imkoniyat – Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sergey Starodubsev (1914–1967) rahbarligida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish imkoniyatini berdi. Ana shunday yetuk mutaxassis bilan

uchrashib, uning rahbarligidagi ilmiy-tadqiqot institutida tahsil olib, keyinchalik olim, fan tashkilotchisi, ustoz sifatida hamjihatlikda faoliyat olib borishi uning kamolga erishishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1959-yili esa Shavkat Vohidov bir qancha iqtidorli yoshlar qatori Yadro fizikasi institutiga taklif qilindi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini dastlab kichik xodim, keyinchalik katta ilmiy xodim sifatida davom ettirib, va nihoyat 1962-yili "Gamma nurlari bilan nurlangan kristalli kvarsning lyuminesansiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. U 1959–1965-yillarda tadqiqotchi, 1965–1995-yillarda esa Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining dielektrik materiallardagi radiatsiya jarayonlari laboratoriyasi mudiri bo'lib ishladi va yana keyinchalik qator lavozimlarda faoliyat olib bordi. Olim Koinot NPO da Vega loyihasiga rahbarlik qilgan davrda Venera, shuningdek, Phobos – Mars sayyorasining sun'iy yo'ldoshi tuprog'ining tuzilishi va fizik-kimyoviy tarkibini o'rganish uchun "Venera-13", "Venera-14", "Venera-15", "Venera-16" maxsus tuproq namunalarini olish qurilmalari yaratilgan.

Olim 1964-yili institut tarkibida "Dielektrik moddalarning radiatsion oqimlari" laboratoriyasini tashkil etib, 30 yil davomida unga rahbarlik qildi. Ushbu laboratoriyaning ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida ilmiy ishlari nafaqat Sovet Ittifoqi, balki jahon ilmiy jamoatchiligi orasida mashhur bo'lgan maktab yaratildi.

Shavkat Vohidov ilmiy iqtidori bilan kosmonavtika fani, kosmik texnologiyalar taraqqiyotiga mislsiz hissa qo'sha olish darajasiga yetgan fizik olimlarimizdan. U 1987-yildan O'zbekiston Respublikasi Kosmonavtika federatsiyasi prezidenti, 1990-yildan boshlab esa iqtidorli maktab o'quvchilari uchun o'zi tashkil etgan xalqaro aerokosmik maktabning tashkilotchisi va rahbari bo'ldi. Shuningdek, qattiq jismlar fizikasi, kosmonavtika, spektroskopiya, kristallografiya, radiotexnika va aloqa, asbobsozlik bo'yicha yirik tadqiqotlar qildi. Bevosita rahbarligida orbitadagi sun'iy yo'ldoshlarga meteorlar, fazodagi chiqindilar yoki maxsus jismlar bilan ta'sir ko'rsatilganida xabar beradigan ixcham yo'ldoshlar yaratildi. Qolaversa, sel, qor uyumlari ko'chishi va boshqa tabiiy ofatlar yuz berishidan xabar beradigan va bu falokatlar oldini oladigan asbob-uskunalar yaratishga ham muvaffaq bo'lindi. Bu davrda uning rahbarligida yangi kosmik materiallarni sintez qilish imkoniyatiga ega bo'lgan KL-02, "Analiz", "Firuza", "Gavhar" nomli uskunalar yaratildi. Bunday jihozlardan Sovet Ittifoqi va xorijdagi kosmonavtlar "Salyut", "Mir" kosmik stansiyalarida samarali foydalandilar.

Ta'kidlash joizki, Sh.Vohidov o'qituvchilik sohasida ham faol bo'lgan. 1983-yili Toshkent davlat texnika universitetida "Kosmik texnika" kafedrasini tashkil etib,

unga uzoq yillar rahbarlik qildi. Maktab va o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi, ularning kelajakda qanday kasb-hunar egallashi bu bilimdon insonning e'tiboridan chetda qolmadi. Uning bevosita ishtirokida Parkent tumanidagi 19, 20, 21-maktablarni yangi binolar va yangi o'quv jihozlari bilan ta'minlash ishlari boshlab yuborildi.

Shavkat Vohidov adabiy muhitda ulg'aygan. Uzoq yillar o'tib bunday tarbiya muhiti ham o'z samarasini beradi. U Samarqandiy Sipandiy, Samarqandiy Pisandiy va Samarqandiy Tamhidning badiiy ijodini o'rganadi, ana shunday shoirlarning g'azal, dostonlarini topib, kitob holida nashr ettiradi. Xattotlik san'ati bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida O'rta Osiyo, xususan, Samarqandning bir qancha xattotlari bilan tanishadi.

Shavkat Vohidov ajoyib hikoyachi edi. Uning ba'zi "hikoyalari" qadrdonlari daftarida saqlanib qolgan:

"O'tmish sog'inchidan emas, xolislik uchun shuni ta'kidlab o'taman, – deydi Shavkat Vohidov, – "ToshKB" o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Bu davrga kelib O'zbekistonning turli akademik va sanoat ilmiy-tadqiqot institutlari hamda universitetlarida Olamni tadqiq qilish bilan bog'liq amaliy tadqiqotlar olib borilib, aerokosmik soha va infratuzilma uchun milliy kadrlar tayyorlanar edi. 50-yillarning boshlarida qit'alararo raketalarni uchirish masalasi paydo bo'lgan edi. Uchta mumkin bo'lgan nuqta muhokama qilindi. Birinchi o'rin Dog'iston, ikkinchi o'rin Mordoviya va uchinchi o'rin Qozog'istonga nasib etdi. Natijada yer sinovlari majmuasi va uchirish tizimlarining o'sha paytdagi konstruktorlik byurosining bosh konstruktori, akademik Vladimir Barminning ta'kidlashicha, ular uchinchi variantni tanladilar. Bu iqlim sharoiti bo'yicha eng yomoni edi, lekin uning afzalligi Boyqo'ng'ir hududida aholining kamligi edi. Bu tanlov ham to'g'ri qaror bo'ldi, chunki Toshkent-Moskva temir yo'llari, avtomobil yo'llari va radiorele liniyalari Boyqo'ng'irdan uncha uzoq bo'lmagan joydan o'tgan. Loyiha hujjatlarida bo'lajak kosmodrom NIIP-5 - 5-sonli ilmiy tadqiqot poligoni deb nomlangan. Maxfiylik sababli unga "Toshkent-50" deb nom beriladi.

Keyin O'zbekiston sement zavodlariga, albatta, katta sir tutgan holda, raketa uchirilishi payti yuqori haroratga bardosh beradigan temir-beton konstruksiyalar uchun ishlatiladigan sementning maxsus navlarini ishlab chiqarishga buyurtma berildi. Sayyoramizda ilk bor Yuriy Gagarinni orbitaga olib chiqqan raketa uchun ham ballistik raketalarni uchirish uchun O'zbekistonning maxsus sementlari ishlatilgan. Darvoqe, kosmonavtika tongida Toshkent aviatsiya zavodi ham muhim rol o'ynagan. Ma'lum bo'lishicha, "Toshvazavod"da ishlab chiqarilgan Li-2 samolyotlari va Turk-VO harbiy transport aviatsiyasining uchuvchilari kosmodromda joylashganlar hamda uning turli bo'linmalariga xizmat ko'rsatadigan birinchi havo otryadi tashkil etilgan. Shuning uchun hozir bizning samoviy "ishchimiz" – Li-2 – Boyqo'ng'ir maydonlaridan biridagi poydevorga o'rnatilgan".

OY VA VENERADAGI
BURG'ULASH
QURILMALARI

"Bizning konstruktorlik byuromizning to'ng'ich farzandi va bilmaganlar uchun bu hali ham xayoldek tuyuladi, tuproqni qabul qilish moslamasi "LB-09" – balandligi atigi uch metr va og'irligi atigi 27 kilogramm bo'lgan noyob miniatyura burg'ulash mashinasi edi. Aynan shu narsa bilan 1976-yil avgust oyida Oyga va ortga – Yerga uzoq parvozni amalga oshirgan Luna-24 kosmik kemasi jihozlangan. Tushish moduli Inqirozlar dengizining janubi-sharqidagi Oyga qo'ndi va Yerdan berilgan buyruq bilan O'zbekistondan uchirilgan "LB-09" Oyda ikki metr chuqurlikdagi teshik ochdi. Umumiy massasi 170 gramm bo'lgan namunalar chuqurlik taqsimoti saqlab qolindi hamda Hind okeaniga qaytib keluvchi modul konteyneriga joylashtirildi. Bombayda Sovet Hind okeani eskadronining dengizchilari ushbu modulni An-12 samolyoti boriga o'tkazdilar. U Toshkent aeroportiga qisqa texnik qo'ngandan so'ng, qimmatbaho yuk Moskvaga yetkazib berildi.

O'sha mini-mashinani yaratuvchilarning kichik guruhiga Toshkentda qanotli yuk mashinasining qornidagi modulni ko'rishga ruxsat berildi. Tabiiyki, oy tuprog'ini evakuatsiya qilish va tashish bo'yicha bu butun operatsiya tasdiqlangan".

Shunday qilib, Shavkat Vohidov konstruktorlik byurosiga 1981-yildan to 2002-yilgacha, ya'ni yigirma bir yil davomida bosh konstruktorlik qildi. Y.I. Bolotin, Y.N. Denisov va B.P. Jukovlar uning o'rinbosarlari bo'lgan. Toshkentdagi maxsus konstruktorlik byurosida Shavkat Vohidov rahbarligida yaratilgan "LB-09" burg'ulash qurilmasi va avtomatlar Oyni, Mars va Venerani tadqiq etishda, Galley kometasi sari uchirilgan "Vega"da olib borilgan tajribalarda ayniqsa qo'l kelgani bugun ko'pchilikka sir emas.

1981-yilning oktabrida uchirilgan "Venera-13" va "Venera-14" kosmik stansiyalari Venera sayyorasiga yumshoq qo'ndiriladi. Venera zaminining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish uchun bu qurilmalar orqali maxsus germetik bo'lmalarda o'ta noyob tajribalar amalga oshiriladi. Yerga Venera zaminidagi elementlarning oltmish xil spektrini uzatishga muvaffaq bo'linadi.

Shavkat Vohidov uzoq yillar davomida jamoani aniq maqsad sari uyushgan holda harakatlantirdi. U ko'plab yuqori malakali konstruktorlar, asbobsozlar va texnologlar, elektronchilar, ishlab chiqaruvchi va sinovchilarga ustozlik qildi. Kosmik fazoni tadqiq etishda jahondagi ko'plab olim va mutaxassislar bilan hamkorlik qilishga erishdi.

Allomaning benihoya kamtarligi, go'zal insoniy fazilatlarini, fidoyiligi ham aslo unutilmasdir. Yaqinda zakovati tengsiz ulug' olim qariyb sakson yosh arafasida boqiy dunyoga rixlat qildi. Kosmik texnologiyalar taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan akademik Shavkat Vohidovning jasorati uning yaratuvchilik va kashfiyotchilik ishini davom ettirayotgan shogirdlari timsolida davom etajakdir.

Mansurxon TOIROV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Taqriz

Yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviylikni ta'minlashga qo'shilgan hissa yoxud yangi darslik e'tirofi

O'zbekiston Prezidentining 2003-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonining 20-bandida Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish yoxud o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlarni yaratish vazifasi qo'yilgan edi. Mazkur vazifaning Konstitutsiya normalarini real hayotda amalga oshirishda ustuvor chora-tadbir sifatida belgilanishi bejiz emas. Sababi, mamlakatimizda konstitutsiyaviylikni ta'minlash, ayniqsa yoshlarga va barcha fuqarolarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini to'g'ri o'rgatishga bog'liq.



Mas'uliyat va iqtidor

Ushbu darslikda yangilangan Konstitutsiya yaratilishining zarurati va oldingi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy prinsiplarini saqlagan holda yangicha yondashuvlar asosida muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar bilan boyitilgan o'quvchilarga tushunarli tilda bayon qilingan. Bu esa tabiiyki, qayd etilgan ko'lamli va zalvorli vazifani ta'minlash yo'lida amalga oshirilgan mas'uliyatli hamda manfaatli yumush hisoblanadi.

Muallif yuridik fanlari doktori, professor Ozod Husanov umrini Konstitutsiyani o'qitish va tadqiq qilishga bag'ishlab kelayotgan yetuk mutaxassis bo'lgani bois ushbu mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Natija yomon bo'lmadi. Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha eng yaxshi o'quv adabiyotlarini aniqlash yuzasidan respublika tanlovida 2023-yil 12-oktabrda g'olib deb topilib nashrga tavsia etildi.

Mohiyat va ahamiyat

"Konstitutsiyaviy huquq" darsligi aslida oliy o'quv yurti yurisprudensiya sohasi bakalavr yo'nalishidagi o'quv moduli asosida tayyorlangan. Biroq u mohiyatan Konstitutsiyani o'rganishga qiziqqan barcha uchun birdek foydali ekanligini e'tibordan qochirmaslik lozim. Binobarin, unda konstitutsiyaviy huquqning umume'tirof etilgan nazariy jihatlarini saqlanib, yangi tahrirdagi Kons-

titutsiya normalari asosida mavzular yoritilgani diqqatga sazovordir. Mavzular o'quvchilar uchun ravon, sodda tilda bayon etilgan.

Chunonchi, darslikda Konstitutsiyaning yangilanish sabablari yoxud uning loyihasini tayyorlash va loyiha muhokamasida xalqning ishtiroki masalalari yoritilgani ham o'quv-metodik ishning mohiyatan to'liq chiqishiga zamin yaratgan. Muallif Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va yangiliklarning aksariyati O'zbekiston Prezidentining tashabbusi asosida amalga oshirilganini ishonchli faktlar asosida ochib bergan.

Mavzular Konstitutsiya tuzilishiga mantiqan mos bo'lib, ayrim mavzularda asosiy qonunimizdagi an'anaviy tuzilmadan ijodiy yondashuv asosida ijobiy ma'noda chetga chiqilgan. Masalan, "Saylov tizimi" darslikning davlat hokimiyatini tashkil etish bo'limining oxirida emas, boshida ishonchli dalillar bilan keltirilgani ham to'g'ri bo'lgan. Mazkur metodik yondashuv o'quvchilar tomonidan xalq hokimiyatchiligi mohiyatining konstitutsiyaviy asoslarini o'zlashtirishda qulaylik tug'diradi.

Yangilangan Konstitutsiyaning 1-moddasi oldingi tahrirdagi Konstitutsiyaga nisbatan xiyla boyitilib, unda "boshqaruvning respublika shakli", "demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" kabi tushunchalar kiritildi. Darslikda mazkur tushunchalar to'g'risida ma'lumot berilib, ularning mohiyati ochib berilgan. Aslida aynan shu norma asosiy qonunning mazmun va maqsadini anglatadi. Qolgan normalar uning amalga oshirishiga xizmat qiladi. Muhimi, darslikda Konstitutsiyaga kiritilgan yangiliklardan birortasi chetda qolmagan. Jum-

ladan, Konstitutsiyada qo'llanilgan "Fuqarolik jamiyati institutlari" hamda "Advokatura" tizimiga bag'ishlangan yangi boblar kiritilib, ularga doir yetarli ma'lumotlar berilgani ham darslik ahamiyatining oshishiga xizmat qilgan.

Natija va xulosa

Professor Ozod Husanov Konstitutsiyaviy huquq sohasida shakllangan yetuk olim sifatida mamlakatimizdagi har bir shaxs tomonidan asosiy qonunimiz normalarining nazariy jihatdan tushunilib idrok etilishi hamda undan real hayotda foydalanishda muayyan amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi muhim zarurat ekanligi g'oyasiga ishonadi va amal qildi. Natijada muallif tomonidan davlatimizning yangilangan Konstitutsiyasini o'rganishga bag'ishlangan asosiy va dastlabki manba yaratilishiga muvaffaq bo'lindi.

Darhaqiqat, olim Prezidentimizning Konstitutsiyani hayotga tatbiq etish bo'yicha imzolagan farmonida olimlar va mutaxassislar oldiga qo'yilgan vazifani zahmatli ilmiy, ijodiy va ruhiy jarayon natijasida qisqa muddatda, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishni uddaladi. Muallif mazkur yo'nalishda keyinchalik davr talabiga javob beradigan ta'lim standartlari va tanlov asosida yaratilishi lozim bo'lgan yangi asr darsliklari avlodi uchun ilmiy va o'quv-metodik asos yarata oldi, deb hisoblaymiz.

Zotan, mazkur darslik mamlakatimizning barcha soha vakillari, xususan, adolatli jamiyat barpo etilishini istaganlar, huquqning mazmun-mohiyatini va natijasini to'g'ri tushunib idrok etadigan hamda unga itoat qilishni yoxud tartib bilan yashashni xohlagan barchaning o'qib o'rganishi uchun manfaatli sanaladi. Chunki ushbu metodik ish o'zining asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilgan, shuningdek, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatini yaxshi anglagan yoxud huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak, huquqiy faol shaxslarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Halimboy BOBOYEV,
O'zbekiston fan arbobi,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlari doktori
Eshmuhammad QODIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlari doktori

Kitob javoningizga

ONLAYN REKLAMA: YANGI BILIMLARNI KASHF ETING



Raqobat kuchayib borayotgan bugungi kunda reklamani o'rni va ta'sirini tushunish marketing sohasi mutaxassislari uchun nihoyatda muhimdir. "Onlayn reklama" darsligi nafaqat reklamani evolyutsiyasi va uning biznes bilan bog'liqligini ko'rishga yordam beradi, balki hozirgi tendensiyalar va zamonaviy reklama amaliyotlarida duch keladigan muammolarga ham e'tibor qaratilgan.

Qo'llanma muallifi, yosh olim, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) D.Abdiyeva reklama borasida o'ziga xos nuqtayi nazarga ega mutaxassis sifatida mushtariylar uchun raqamli marketingning dinamik olamiga mohirona yo'l ochadi. Muallif internetda reklama strategiyasi va texnikasi olamiga qiziqarli sayohatni taklif qiladi.

Reklama tarixini o'rganish soha mutaxassislari uchun zamonaviy amaliyotni tushunishning asosiy qismidir. Darslikda qisqacha tarixni taqdim etish orqali o'quvchilarga reklamani evolyutsiyasini ko'rish va uning rivojlanishiga qanday omillar va tendensiyalar ta'sir qilganini tushunish imkonini berilgan. Tarixni bilish hozirgi tendensiyalarni tahlil qilish va reklamani kelajak-

dagi yo'nalishlarini bashorat qilish uchun qimmatli vosita bo'lishi aniq.

Reklama rivojlanishining qisqacha tarixiga nazar solish muhim o'quv elementi bo'lib, talabalar yoki o'quvchilarga reklama sanoati konteksti va evolyutsiyasini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Tarixiy sharh talabalar o'tmishda qanday usullar va strategiyalar qo'llanilganligi va ular zamonaviy yondashuvlar bilan qanday solishtirilganini ko'rishga yordamlashadi. Shuningdek, texnologik o'zgarishlar va ijtimoiy-madaniy omillarning reklama rivojlanishiga ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Onlayn reklama bir qator sabablarga ko'ra zamonaviy biznesning ajralmas qismiga aylandi. U quyidagilarni ta'minlaydi:

- Global foydalanish imkoniyati – internet-reklama butun dunyo bo'ylab auditoriyaga kirishga imkon beradi, miqyos va geografik qamrovni yaxshilaydi;
- Maqsadli yo'naltirish – maqsadli belgilash reklama kampaniyalari samaradorligini oshirib, muayyan foydalanuvchilar guruhlariga erishish imkonini beradi;
- Natijalarni o'lchash mumkinligi – onlayn platformalar biznesga reklama samaradorligini baholash va strategiyalarni

o'zgartirish imkonini beruvchi batafsil tahlillarni taqdim etadi;

- Iqtisodiy samaradorlik – reklamani an'anaviy shakllari bilan solishtirganda, onlayn reklama ko'pincha tejamon va moslashuvchan budjet nazoratini ta'minlaydi;

- Tomoshabinlarni jalb qilish – ijtimoiy tarmoqlar va boshqa onlayn platformalar iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, brendni mustahkamlash va hamjamiyat yaratishni ta'minlaydi. Mana shu omillar raqamli transformatsiya davrida onlayn reklama muhimligini ta'kidlaydi.

Darslik muallifi reklama tarixiga to'xtalar ekan, uning kelib chiqishidan tortib, zamonaviy tendensiyalarigacha bo'lgan qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. O'quvchi reklama vaqt o'tishi bilan qanday qilib biznesning muhim elementiga aylanganini ko'radi. O'quv qo'llanmada hozirgi bosqichda reklamani tushunishning ahamiyatiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bugungi kunda reklama sohasidagi dolzarb muammolar va tendensiyalarni aks ettiradi.

Sharq bozorlarining shakllanishi tarixi va ularning reklama elementlari bilan o'zaro ta'siri ham reklama va marketingni

o'rganishning o'ziga xos jihatini ifodalaydi. Sharq bozorlarida reklama elementlarining paydo bo'lishi turli madaniyat va kontekstlarda reklama amaliyotining evolyutsiyasini aks ettiradi. Bu yerda ishonitirish mahorati va savdo mahorati madaniy an'analarning rang-barang mozaikasida birlashadi. Asrlar davomida ushbu bozorlarda ma'lumot uzatish va tovarlarni targ'ib qilish og'zaki an'ana va bevosita o'zaro ta'sirga asoslangan bo'lib, hikoyalar va mahalliy jihatlariga boy reklamani o'ziga xos uslubini yaratadi.

Qo'llanmaning olti tilda chop etilgani ham ahamiyatlidir. Zero, dunyoning turli burchaklaridagi soha mutaxassislari uchun qo'shimcha bilim eshiklarini ochadi. Ushbu ko'p tilli yondashuv nafaqat ta'limning globalligini ta'minlaydi, balki raqamli marketing olamida muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy almashinuv va istiqbollar xilma-xilligiga erishishga yordam beradi.

"Onlayn reklama" darsligi nafaqat talabalar, balki marketing va reklama sohasi mutaxassislari uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Reklama tarixini, shuningdek, uning biznes bilan aloqasini atroflicha o'rganish kitobxonlarga ushbu muhim soha evolyutsiyasini chuqur anglash va olgan bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi. Kitob reklama sohasida rivojlanishga intilayotgan har bir kishi uchun muhim ma'lumot va ilhom manbayi hisoblanadi.

Shahnoza ERGASHXO'JAYEVA,
TDIU "Marketing" kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor



Yarmuxamedov Alisher Salidjanovichning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.31 — Urologiya ixtisosliklari bo'yicha "Erkaklarda birlamchi bepustlik patogenezida immuno-genetik mexanizmlar: tashxislash va davolashga yondashuvlar" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.tib.50.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 9-yanvar kuni soat 16:00 dagi offlayn va onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tdi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo

G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30;

e-mail: immunologiya@qip.ru, immunology@exat.uz, www.immuno.uz

Yusupaliyeva Dilafruz Kaxramonovnaning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Global axborot makonida jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirishda OAV faoliyatini takomillashtirish (televideniye misolida)" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 17-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU,

Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Ro'zmatov Izzatbek Baxtiyorovichning 14.00.35 — Bolalar xirurgiyasi ixtisosligi bo'yicha "Chaqaloqlarda qorin old devori tug'ma nuqsonlarini tashxislash va jarrohlik davolash" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Bolalar milliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/01.02.2022.Tib.147.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 16-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 294-uy. Bo-

lalar milliy tibbiyot markazi binosi, 4-qavat, majlislar zali.

Tel/faks: (55) 503-00-03, 503-03-66; e-mail: info@bmtm.uz

Tirkasheva Sarvinoz Isoq qizining 02.00.03 — Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Ayrim terminal atsetilen spirtlarining kimyoviy o'zgarishlari va biologik xossalari" mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 18-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,

Amir Temur ko'chasi, 104-uy.

Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Usmonova Durdona Asatilloevnaning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Sovuqqa qarshi kompleks qo'shimchalarining og'ir beton xossalriga ta'siri" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 18-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 508-50-14, 508-03-12; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Mamadov Nasimbek Shuxratjon o'g'lining 09.00.05 — Milliy g'oya va targ'ibot texnologiyalari ixtisosligi bo'yicha "Yoshlar qalbida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishda Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi faoliyati targ'ibotining roli" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 15-yanvar kuni 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100147, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Azizova Gavxar Maxmudxanovnaning 14.00.37 — Anesteziologiya va reanimatologiya ixtisosligi bo'yicha "Sun'iy o'pka ventilyatsiyasi bilan bog'liq traxeobronxitning oldini olish va davolash usullarini takomillashtirish (klinik va eksperimental tadqiqot)" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Bolalar milliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/01.02.2022.Tib.147.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 16-yanvar kuni soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 294-uy.

Bolalar milliy tibbiyot markazi binosi, 4-qavat, majlislar zali.

Tel/faks: (55) 503-00-03, 503-03-66; e-mail: info@bmtm.uz

Ishanov Javlon Xamidullayevichning 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Tomchilatib sug'orish tizimi elementlarini hisoblashning gidravlik usullarini takomillashtirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 20-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv 4-mavze, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28;

e-mail: ismiti@minwater.uz

Jumanov O'tkirjon To'lqin o'g'lining 03.00.07 — O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi ixtisosligi bo'yicha "Bug'doy fiziologik-biokimyoviy ko'rsatkichlarining tuproq-iqlim sharoitiga bog'liqligi bo'yicha raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish" mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 18-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-27-57;

e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Xamidova Nigora Karimboyevnaning 14.00.02 — Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalikning I-II davrida turli yurak nuqsonlari bo'lgan bolalar antropometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsiflari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 1-fevral kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53;

e-mail: buhmi@mail.ru

Toshboyev Abdusalim Jalilovichning 09.00.05 — Milliy g'oya va targ'ibot texnologiyalari ixtisosligi bo'yicha "Globallashtirish jarayonida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 13-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100147, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24;

e-mail: nauka@nuu.uz

Karimova Sadoqat Tohirovnaning 09.00.06 — G'oyalar tarixi va metodologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni yuksaltirishning mafkuraviy mexanizmi" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 13-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100147, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24;

e-mail: nauka@nuu.uz

Idiyev Oybek Elmurodovichning 14.00.21 — Stomatologiya hamda 14.00.02 — Morfologiya ixtisosliklari bo'yicha "Serebral falaj bilan og'rigan bolalarda yuz-jag' sohasining korreksiyagacha va undan keyingi morfofunksional holati" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 23-yanvar kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50;

e-mail: info@buxmi.uz, buxmi@mail.ru

Toshkent kimyo-texnologiya instituti jamoasi institutning Shahrisabz filiali direktori, professor Shuhrat Mutalovga onasi

Xolida MUTALOVaning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Faxr

SAMARQAND – DUNYO TURIZM POYTAXTIGA AYLANAJAK

Dunyoning e'tiborli sarmoyadorlari, rivojlangan mamlakatlarning mashhur tijoratchi va bankirlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, iqtisodchi va siyosatchilari, san'ashunoslarining nigohi bugun Samarqandga qaratilgan. Bu esa Samarqandning O'zbekistonning yirik, fan va madaniyat markazi sifatidagi mavqeyi tobora oshib borayotganidan, mamlakatning gullab-yashnashi va ravnaqi uchun muhim hissa qo'shayotganidan dalolat beradi.

Jahon bankinging prezidenti Jeyms D.Uolfenson Samarqandga tashrif buyurganida "Keyingi 40 yil davomida qariyb butun dunyoni kezib chiqdim, biroq Samarqanddek shaharni hech joyda ko'rmadim", deb o'z qalb so'zlarini aytgan edi. Amerikadan kelgan sayyohlarning fikricha, "dunyoda bittagina Parij va bittagina Samarqand mavjud". Om-maviy fransuz jurnallaridan birining e'tirof etishicha: "Samarqand tasavvurni junbushga keltiradigan shahar bo'lib borayapti. Ko'zingizni yumib, muloyim ohangda "Samarqand" so'zini talaffuz qilsangiz, xuddi ertaklardagidek tasavvuringizda go'zal va sehrli manzaralar oqimi paydo bo'ladi".

Shu o'rinda uzoq tarix sahifalarida qoldirilgan ushbu satrlarni ham eslash joiz-dir: "Bu shahar va uning atrofidagi zamin shunchalik boy va farovonki, bundan hayratga tushmasdan bo'lmaydi. Ehtimol shuning uchundir u Semizkent deya atalgan".

Samarqandliklar o'zlarining zaminlari kabi saxiy, bobolari kabi sobitqadam, hissiyotli, tarixlari misol betakror va noyob, tinchliksevar va saxovatlidir. Ularning bu noyob fazilatlarini O'zbekistonga tashrif buyurayotgan barcha davlat rahbarlari, arboblari, fan va madaniyat vakillari tomonidan tan olinib, "Turizm

Makkasi" deya e'zozlanmoqda. Samarqandga kelish baxtiga sazovor bo'lgan, orzulari ro'yobga chiqqan xorijiy sayyohlar uni "butun dunyoga yuz ochgan shahar", "Ming bir kechadagi afsona va ertaklar shahri" deya atamoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda Samarqandda qad rostlagan "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazi butun dunyo e'tirofi va e'tiborida. Majmua qurilishiga tajribali arxitektor va muhandislardan iborat xalqaro guruh jalb etilib, unda o'zbekistonlik quruvchilar bilan birga, Turkiya, Buyuk Britaniya, Eron, Italiya kabi davlatlardan mutaxassislar ishtirok etgan.

Ko'p tarmoqli markaz tarkibiga 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress-xoll, "Boqiy shahar" majmuasi, amfiteatr va boshqa ko'plab inshootlar kiradi. Turis-



tik markaz binolarida Buyuk ipak yo'li davriga oid tarixiy suratlar aks ettirilgan. "Boqiy shahar" majmuasi bezaklarida qadimiy Afrosiyob devorlarida saqlanib qolgan So'g'd davlati hukmdorining Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalanilgan.

"Boqiy shahar" majmuasida eski bozor, O'zbekistonning barcha hudud-

dan 9 millionga yetkazish vazifasi turibdi. Turizm sohasida band bo'lgan o'zbekistonliklar soni 500 ming kishidan ortishi kutilmoqda.

O'zbekistonda turizm rivoji O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi ochilishida e'lon qilingan turizm sohasidagi tashabbuslar bilan belgilanadi. Ular orasida 2030-yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasini tuzish, aviaqatnovlar, avtomobil va temiryo'l tarmoqlarini kengaytirish, har bir aeroportda "Ochiq osmon" rejimini joriy etish, global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish, sayyohlarni O'zbekistonga yanada ko'proq jalb etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan "yashil" turizmni rivojlantirish kabi vazifalar bor.

Xulosa qilish kerakki, dunyo sayqali bo'lgan hamisha navqiron va ko'hna Samarqand zamini hali butun olamni o'ziga ohanrabodday tortadi, bu mas-kanga sayyohlar oqimi yanada ortib, o'z go'zalligini ko'z-ko'z etadi. Ushbu sa'y-harakatlarda har bir o'zbekistonlik o'z kasbi, vazifasidan qat'i nazar, faollik ko'rsatishi, vatanimizning muqaddas zamin, xalqimizning esa bag'rikeng, o'tmishi va kelajagi buyuk el ekanligini e'tirof etishga munosib hissasini qo'shmog'i lozim. Ushbu vazifa barchamizning zimmamizdagi shu aziz elga bo'lgan munosib farzandlik burchimizdir.

Asliddin SAFAROV,
"Registon" ansambli
gid-ekskursovodlar bo'limi boshlig'i
Dilafruz JUMAYEVA,
gid-ekskursovod



lari an'analariga mos 40 ta hunarmandchilik ustaxonasi mavjud. Unda ustalar yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish kabi jarayonlarni sayyohlarga namoyish etadilar.

Prezidentimiz "Buyuk Ipak yo'li"ning ochilish marosimida so'zlagan nutqida Samarqandning sayyohlik salohiyatiga to'xtalib, bu shaharga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonini bir yarim milliondan ortiq kishiga yetkazish rejalashtirilganini ma'lum qildi. Umuman olganda, hukumat oldida yaqin besh yil ichida O'zbekistonga sayyohlar oqimini hozirgi 2 million-



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V- 5673. Tiraji 5041

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:



Dizayner: Malohat Toshova
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099 Toshkent shahri
Darvozakent ko'chasi 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.